Mustabid tizim davrida ishlab chiqarish samaradorligi keskin pasaydi, mahsulot sifatidagi e’tibor susaydi, fan-texnika taraqqiyoti jihatidan jahonning rivojlangan mamlakatlaridan orqada qola boshladi. Bugungi kun nuqtai nazaridan yondashganda, kommunistik mafkura xalqa siyosiy ekstremizmning (keskin chora-tadbirlar ko’rishning) yaqqol ifodalangan mavkura turlaridan biri ekanligi namoyon bo’ladi. U o’zi paydo bo’lgan dastlabki kunlardan boshlab keng xalq ommasiga nisbatan ommaviy zo’ravonlik qilishga va unga nisbatan siyosiy qirg’inlar ishlatishga asoslangan edi. SSSRning inqirozga uchragan, bu bilan esa jahon sotsialistik tizimining barbod bo’lishi tarixiy qonuniyat edi. Inqirozga uchragan kommunistik eksperiment kommunistlar barpo etgan «sotsializm binosi» avval boshdan o’ta yaroqsiz markscha loyihaning chirigan poydevori ustiga ko’rilganligini ishonarli tarzda namoyish etdi. Tovarsiz, bozorsiz poydevor ustiga quriladigan yangi ijtimoiy tuzum barpo etish g’oyasi o’ta yaroqsizligi bilan ajralib turar edi.

Oktyabr to’ntarishidan keyin darhol xususiy mulkchilik ta’qib etildi, badavlat kishilar quvg’in qilindi, ko’p ukladlilik tugatildi, bozorlar bekitildi, mafkuralagan tanho iqtisodiyot jadal sur’atlar bilan shakllandi. Mamlakat xo’jaligi bozor iqtisodiyotini yuqori samaradorlikka olib boruvchi vosita raqobatdan mahrum bo’ldi. Jadidlar harakatining fidoyilaridan biri, mashhur ma’rifatparvar olim va adib Mahmudxo’ja Behbudiy 1906 yildayoq Lenin partiyasini «buyruktariya mustabid», deb atagan, uning dasturi Turkistonning erkin rivojlanishi uchun faqat yaroqsizgina bo’lib qolmasdan, shu bilan birga zararli ekanligini ham ta’kidlagan edi. Urushdan keyingi yillarda markscha iqtisodiy andozaning joriy etilishi og’ir oqibatlariga sabab bo’ldi. Sotsialistik iqtisodiyotga xos bo’lgan umumiy illatlardan tashqari, u O’zbekistonda xalq xo’jaligining mustamlakachilik yo’nalishini saqlab qolish bilan to’ldirildi. Respublika xalq xo’jaligi har tomonlama (paxtachilikka) ixtisoslashtirilgan juda ko’plab salbiy oqibatlariga olib keldi. Eng global muammo – Orol fojiasi yuzaga keldi.

60-70 yillarda boshlangan oltin qazib chiqarish sanoati har yili markazga 50 tonnagacha oltin yetkazib bergan. O’zbekistondan olib chiqib ketilgan ulkan tabiiy



resurslarning qiymati 100 mlrd. lab AQSh dollariga teng bo'lgan. Markaziy hukumat esa respublikaning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga juda arzimagan qoldiq mablag'larni ajratardi. Jamiyat ijtimoiy siyosiy hayotida tub o'zgarishlar bo'lishiga umidning so'nishi 80-yillarning boshlarida ayniqsa kuchaydi. Buning oqibatida, bir tomondan, ma'muriy siyosiy biqlik kuchaygan bo'lsa, boshqa tomondan jamiyat a'zolari mehnat intizomining pasayishi, ijtimoiy loqaydlik, befarqlik kuchayib bordi. Ana shunday sharoitda 80-yillarning o'rtalarida sovet jamiyatida «qayta qurish» boshlandi. Qayta qurish KPSS MK Bosh Kotibi M.S.Gorbachyov va KPSS MKning 1985 yil aprel plenumi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu jarayon avvalo jamiyatning ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida to'planib qolgan inqirozli holatlarini tahlil etishdan boshlandi. Natijada mahsulot ishlab chiqarish uchun ikki barovar ko'p tabiiy resurslar, energiya, inson mehnati sarf etilishi, temir, po'lat, stanoklar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallashiga qaraamasdan mamlakatda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilganligi qayd etildi. Biroq qayta qurish «konsepsiyasi» avval boshdanoq noilmiy bo'lib, u mag'lubiyatga mahkum edi. Qayta qurish borasidagi dastlabki tajribalarning ko'rsatishicha mamlakat siyosiy rahbariyati birinchi kundanoq qayta qurish mafkurasini anglab yetishda nihoyatda soddalashgan nuqtai nazar bilan yondashdi. Qayta qurish «konsepsiyasi» qardosh ittifoqdosh respublikalarning hayotiy manfaatlari va muammolarini chuqur ilmiy tahlil qilishga, ularni bilishga asoslanmagan edi. O'sha davrda sovet sotsialistik tuzumi iqtisodiy, siyosiy jihatdan ulkan imkoniyatlarga ega deb hisoblandi, tarixiy istiqbol sotsializm tomonida deb qaraldi.

80-yillarning o'rtalarida boshlangan qayta qurish siyosati 2 bosqichda amalga oshirishi zarur edi. Birinchi bosqich 1985-1987 yillarni o'z ichiga olib, bu bosqich ma'muriy tashkiliy tadbirlarning an'anaviy usullarda olib borish bilan izohlanadi. Bu bosqichda fan texnika taraqqiyotiga katta e'tibor beriladi, iqtisodiyotning rivojlanishi uchun ma'lum tadbirlar ishlab chiqiladi. Ammo bunday jarayonni ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Natijada 1986 yildan boshlab mamlakat iqtisodiy ahvoli battar yomonlashdi. 1987 yil yanvardan ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaydi, iqtisodiyotda inqirozli holat yuzaga keldi. Qayta qurishning birinchi bosqichi shu tarzda mag'lub bo'ldi.

Qayta qurishning 2-bosqichi 1987-1990 yillarni o'z ichiga olib endi jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzida isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi. Bunday vazifa sobiq siyosiy mafkura tomonidan 1987 yil yanvarida yanada aniqlashtirildi va uning asosiy maqsadi sovet jamiyatini to'liq demokratlashtirishdan iborat ekanligi ta'kidlandi.



Ammo mamlakatda tub demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, boshlangan islohotlarni oxiriga yetkazish mumkin bo'lmadi. Bu 2 sabab bilan izohlanadi. Birinchidan, qayta qurishning aniq, izchil, ilmiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan dasturi yo'q edi. Ikkinchidan, partiya rahbarlari bundan manfaatdor emas edilar. Ma'lumki, qayta qurish «yuqoridan» boshlandi. Mazkur jarayonning boshlanishi paytida jamiyat a'zolari unga katta umid bog'ladilar. Ro'y berayotgan o'zgarishlar ayrim ijtimoiysiyosiy, iqtisodiy islohotlar ertangi kunga ishonch ruhini uyg'otdi. Lekin keyinchalik vaziyat o'zgardi, 80-yillarning 2-yarmidan boshlangan iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy muammolarni hal etishdan o'quvsizlik demokratik jarayonlar va oshkoralikning yarim yo'lda qolib ketish – bularning barisi jamiyat a'zolarining qayta qurishga bo'lgan munosabatini o'zgartirdi. Qayta qurishning 3-yilida uning to'liq mag'lub bo'lishi aniq ko'zga tashlanib qoldi. Amaliy ishlar, foydali tadbirlar o'rniga siyosiy jabhadagi «musobaqalar»: siyosiy safsata, quruq vadalar kishilarda loqaydlik holatini yanada kuchaytirdi. Ijtimoiy faollik o'rnini sustkashlik, davlat va partiya siyosatiga ishonmaslik, befarqlik egalladi.

Qayta qurish oshkoralik, demokratiya va fikrlar xilma xilligining ma'lum ma'noda kuchayishiga imkon yaratdi. Natijada tom ma'noda oshkoralikka erishib bo'lmadi, demokratiya esa amalda navbatdagi «siyosiy o'yin»lar ko'rinishini oldi. 1985-1990 yillar xalq ta'limi tizimidagi ayrim siljishlar ma'muriy buyruqbozlik tizimining zo'r berib qilgan harakati bilan tavsiflanadi. Lekin bu davrda ta'lim va tarbiya sohasida ziddiyatli holatlar yanada keskinlashdi. Maktab o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimi moddiy jihatdan yetarli darajada ta'minladi. Sovet ta'lim tizimi jahon andozasidan ajralib qoldi, jahonning ilg'or tajribalaridan bahramand bo'lmadi. Ta'lim, tarbiya sohasida kadrlarni sifat jihatidan qayta ko'rib chiqolmadi mafkuraviy cheklashlar tobora kuchayib bordi. 80-yillarning o'rtalarida boshlangan xalq maorifidagi islohotlar mavjud muammolarni hal etmadi. Masalan xalq ta'limi sohasida belgilangan islohotlarni amalga oshirish maqsadida 1985-1990 yillarga mo'ljallab tuzilgan istiqbolli rejalar 3693 ming o'quvchiga mo'ljallangan yangi maktablar qurilishi ko'zda tutilgan edi, ammo mablag'ning yetishmasligini bahona qilgan markaz uni 920000 o'ringa tushirdi. Holbuki bu paytda respublika qishloqlaridagi mavjud maktablarning 20% haligacha moslashtirilmagan binolarda faoliyat ko'rsatayotgan edi. O'qituvchi kadrlar tayyorlashda salbiy xatolarga yo'l qo'yildi. 1985 yildan respublika maktablarida ishlayotgan o'qituvchilar soni 268,4 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1990 yilga kelib bu raqam 243,9 ming nafarga tushib qoldi. Buning sababi birinchidan aholi o'rtasida o'qituvchiga nisbatan



e'tiborsizlik bo'lsa, ikkinchidan o'qituvchilarni ijtimoiy himoyalashdagi yo'l qo'yilgan jiddiy xatolar bo'ldi.

O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida Uzkompartiyaning XVI plenumi (1984 yil 23 iyun) o'sha paytdagi rahbarlari o'rtasidagi no'noqlik, markaz oldida tiz cho'kib sajda qilishlari oqibatida «O'zbek ishi», «Paxta ishi» deb nomlangan ishlar o'ylab topildi. O'zbekistonning sobiq kompartiya rahbarlari laganbardorligi tufayli 1984 yildan respublikamizga mamlakatning turli mintaqalaridan «desanchilar» yog'ilib kela boshladilar. Gdlyan va Ivanov rahbarligidagi jazo otryadlari 1984-1989 yillarda turli bahonalar tufayli o'n minglab rahbarlarni ishdan oldilar, kadrlarni almashtirish siyosati oilaviy tus oldi. Birgina 1984-1987 yillarda Moskva, Leningrad va Rossiyaning boshqa shaharlaridan 400 dan ortiq kishi O'zbekistonning partiya, sovet, ma'muriy xo'jalik organlariga ishga yuborildi. Bu davrda ijtimoiy ma'naviy sohada milliylikning har bir ko'rinishi «internasionalizm» mohiyatiga yod ekanligini isbotlashga harakat qilindi. Bu narsa o'zbek tili, din, milliy urf-odat, an'ana, marosimlar ayniqsa Navro'z bayramiga munosabatda yaqqol ko'rindi. O'zbek xalqining asrlar davomida yashab kelgan milliy urf-odatlarini, dini ta'qirlandi, oyoq osti qilindi. Natijada xalq orasida, loqaydlik, milliy munosabatlar bobida noroziliklarning kuchayishiga sabab bo'ldi. 1989 yil may, iyun oylarida Farg'ona, Toshkent viloyatlarida va Andijon shahrida millatlararo mojarolar bo'lib o'tdi.

Sovet imperiyasining tanazzulga yuz tutishi Sobiq S S S R ga kiruvchi respublikalarning rasman teng va suveren deb yuritilganida, amalda qaram edi. Ular o'z yerlari, suvlari, o'rm onlari va yer osti boyliklariga, ko'pchilik korxonalariga o'zlari egalik qilolmas edilar. 80— yillarning oxirlari 90— yillarning boshlarida ko'pchilik respublikalar mavjud vaziyatni o'zgartirish talablarini ilgari sura boshladilar. O'zbekiston Respublikasining rahbari I.A.Karimov 1989— yil 20-sentabrda Moskvada bo'lib o'tgan K PSS M Q ning Plenumida so'zlagan nutqida respublikalar bilan S SSR o'rtasidagi vakolatlarni aniq-ravshan ajratib qo'yishni ko'rsatib tutadigan yangi federativ shartnomani ishlab chiqish zarurligi to'g'risida o'z fikrini bildirib: «Biz Ittifoq va respublikalarning vazifalarini, burchlarini va o'zaro majburiyatlarini aniq-ravshan belgilab qo'yish, respublikalar mustaqilligini har jihatdan mustahkamlash tarafdorim iz», - degan edi.

Biroq Markaziy hokimiyat respublikalarga erkinlik berish haqidagi talab-takliflarni e'tiborga olmadi, to'g'rirog'i ularga erkinlik berishni xohlamas edi. Markazning qaysarligi hamda respublikalar jamoat chiligining ta'siri ostida markazdan ajraish harakati kuchayib bordi, 1990— yil bahorida B oltiqbo'yidagi



Latviya, Litva, Estoniya Respublikalari, keyinroq Gruziya va Ozarbayjon SSSR tarkibidan chiqqanligini e'lon qildilar. Markazda va joylarda: «SSSR Konstitutsiyasi va qonunlari ustunmi yoki respubiika Konstitutsiyasi va qonunlari ustunmi?»- degan masalada bahs-munozaralar kuchaydi. Markazdagilar: «Kuchli markazlik uchun kuchli respublikalar», - desalar; joylarda: «Kuchli respublikalar-kuchli markaz», - der edilar.

Markaziy hokimiyat jamoatchilikning talabi ostida Ittifoq shartnomasini yangilash zarurligini e'tirof etishga majbur bo'ldi. SSSR Oliy Soveti mazkur masala bilan shug'ullanuvchi maxsus delegatsiya tuzdi va uning tarkibini tasdiqladi. 1990— yil iyulda Moskvada Markaz vakillari bilan respublikalar delegatsiyalari yangi shartnoma matnini tayyorlashga kirishdi. 1990— yil avgust oyida Ittifoqni yangilash dasturi ishlab chiqildi. Dasturda respublikalar o'z hududlaridagi butun milliy boylarlarga egalik qilish, foydalanish huquqiga ega ekanligi ta'kidlangan edi.

Ammo shartnomaga bunday yondashuv Markazdagilarga yoqmadi. SSSR Oliy Soveti mazkur dasturni qabul qilmadi. SSSR Oliy Soveti respublikalarning istak va manfaatlarini batamom inkor etgan yangicha shartnoma loyihasini tuzib respublikalarga tarqatdi. Respublikalar, shu jumladan, O'zbekiston Markaz loyihasini qabul qilmadi. 1991— yil fevral-mart oylarida Ittifoq shartnomasi loyihasi ustida qayta ish olib borildi. Unda Boltiqbo'yi respublikalari, Gruziya, Armaniston, Moldova vakillari qatnashmadi, Ozarbayjon kuzatuvchi bo'lib qatnashdi. Ittifoq bilan respublikalar vakolatlarini farqlab qo'yishga harakat qilinadi. Nihoyat, Ittifoq va respublikalar vakolatlari belgilab berilgan shartnoma loyihasi masalada e'lon qilinadi.

Respublikalarda mazkur loyiha mas'uliyat qilinadi. O'zbekiston rahbariyati respublikalarga to'la mustaqillik berishni ko'zlamaydigan shartnoma loyihasini rad etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining 1991— yil 12-martda bo'lgan IV plenumida so'zlagan nutqida: «Ittifoq shartnomasini imzolash uchun eng qulay payt qo'ldan boy berib qo'yildi. Ikki yil muqaddam bu masalani ko'targan kishilarning ovozigacha hech kim quloq solmadi. Markaz 1922— yildagi shartnomaga mahkam yopishib olib, oqilona takliflarni qabul etmadi, ishni patsalgasoldi», - degan edi. Bu fikrning to'g'riligini hayot to'la isbotladi. SSSR Oliy Soveti Ittifoq shartnomasini o'zgartirish, SSSRni teng huquqli suveren respublikalar Federatsiyasi sifatida yangilash xususida xalqning fikrini bilish maqsadida 1991— yil 17-mart kuni Butunittifoq referendumini o'tkazishga qaror qildi. 1991— yil 20-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashning Rayosati referendum o'tkazishni mas'ulladi va SSSR Oliy Soveti tom



onidan tayyorlangan bulletin bilan birga yana bitta qo'shimcha byulletenni ovozga qo'yishga qaror qildi.

Qo'shimcha bulletenga «Siz O'zbekistonning mustaqil, teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida qolishiga rozimisiz?»- degan savol qo'yildi. Ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning 93 foizi bu savolga «Ha» deb javob berdilar. Demak, o'zbekistonliklar o'z mamlakatini mustaqil davlat sifatida federative ittifoqda bo'lishini, O'zbekistonning suveren respublika sifatida rivojlanishini yoqlab ovoz bergan edilar. 1991— yil aprelda Kiyevda Ukraina, Rossiya, Belorus, O'zbekiston, Qozog'iston Respublikalari rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda mustaqil respublikalar manfaatlariga mos keladigan Ittifoq shartnomasini tuzishga yondashish yo'llari ishlab chiqildi va tegishli bayonot imzolandi. Bu hujjatni Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalari ham imzolashga rozilik bildirdi. Markaziy ovoz berishga majbur bo'ldi. 1991— yil aprelda Novo-Ogoryovoda SSSR Prezidenti M.S.Gorbachyovning 9 respublika rahbarlari bilan uchrashuvi bo'ldi.

Ish-tirokchilarning tomonidan «Mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirish va tanglikni bartaraf etishga doir kechiktirib bo'lmaydigan choralar to'g'risida» qo'shma Bayonot imzolandi. Bu hujjat «9+1» (9 respublika + Markaz) degan nomni oldi. Uning mazmuni markazning ovoz berganini, Kiyevda bildirilgan fikr-mulohazalarga rozi bo'lganini ko'rsatadi.

1991— yil 3-iyunda Novo-Ogoryovoda SSSR Oliy Soveti vakillari bilan Respublika rahbarlari o'rtasida uchrashuv bo'ldi. Uchrashuvda Mustaqil davlatlar ittifoqi (MDI) tuzish masalasi muhokama qilindi. Mulk, til va yangi shartnomani tasdiqlash tartibi to'g'risida keskin munozara bo'ldi. Uchrashuvda ishtirokchilarning fikr-mulohazalari asosan inobatga olingan «Mustaqil davlatlar ittifoqi to'g'risida shartnoma» loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha barcha Respublikalar Oliy Sovetlariga muhokama uchun jo'natildi. Markaziy shartnoma loyihasi O'zbekiston Oliy Sovetida 1991 — yil 14-iyunda muhokama qilingan. Kengash Federatsiya tamoyillari asosida Mustaqil Davlatlar Ittifoqini tuzish tarafdori ekanligini bildirdi. Shu bilan birga, respublikalar vakolatlarini yanada kengaytirishga doir takliflarni ilgari surdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida mustabid tuzum tomonidan deportatsiya qilingan bir qator xalqlar qatorida mesxeti turklari ham bo'lib, ular asosan aholi zich yashaydigan Farg'ona viloyatiga, bir qismi esa Andijon, Namangan va Toshkent viloyatlariga joylashtirilgan edi. Buning oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy va millatlararo munosabatlarda qo'shimcha muammolarni keltirib chiqardi. Bunga sovet davlati o'z



vaqtida e'tibor bermadi. O'sha davrdagi respublikaning siyosiy rahbariyati (R.Nishonov) o'z vaqtida unga to'g'ri baho berolmadi. Natijada Farg'ona viloyatining turli shaharlarida yoshlarning oilaviy chiqishlari, millatlararo to'qnashuvlar chiqishiga sabab bo'ldi. Respublika matbuotida bu haqda to'g'ri ma'lumotlar berilmasdan go'yoki bu mojarolarga «mahalliy aholi aybdor» deb noxolis baho berildi. 11 iyunda Toshkent shahrida ishlayotgan va o'qiyotgan Farg'onalik yoshlardan 100 ga yaqini «Qizil maydonda» namoyish uyushtirib, Farg'ona voqealari haqida «noto'g'ri ma'lumot berishlariga qarshi fikr bildirdilar va boshqa bir qator talablar qo'ydilar».

1989 yil 8 iyunda Qo'qonda tinch namoyishlar harbiy qismlar tomonidan o'qqa topildi, natijada ellikdan ziyod kishi halok bo'ldi, 200 dan ortig'i yarador qilindi. Umuman 3-12 iyun kunlari Farg'ona viloyatidagi bo'lgan millatlararo to'qnashuvlar va ularni harbiylar tomonidan o'qqa tutishi oqibatida 103 kishi halok bo'lgan, 1009 kishi jarohatlangan va 650 xonadonga o't qo'yib vayron qilingan. Farg'ona voqealaridan keyin O'zbekiston KPMQning 1-kotibi lavozimiga saylangan I.A.Karimov boshliq siyosiy rahbariyat bu masalada prinsipial mavqeini egalladi. O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni o'rganib unga to'g'ri baho berar ekan, I.A.Karimov matbuot komissiyasida: «O'zbekiston yana bir «Farg'ona»ga chidab tura olmaydi», degan edi. Bu aslida yangi rahbarning respublikadagi ahvolni tubdan o'zgartirishga azmu qaror qilganligidan dalolat edi.

Davlat tili haqidagi qonun qabul qilngandan so'ng milliy o'zlikni anglash, milliy davlatchilikni tiklash yo'lini respublikada yana bir tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim siyosiy qadam qo'yildi. 1990 yil 24 martda XII-chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Soveti birinchi sessiyasi o'sha paytda respublika kompartiyasi markaziy komitetining 1- kotibi bo'lgan I.A.Karimovning O'zbekiston SSRning Prezidenti etib saylandi. Shu tariqa, O'zbekiston – SSSR respublikalari ichida birinchi bo'lib o'zining milliy huquqiy va demokratik davlatiga mustahkam zamin yaratdi.

O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvining joriy qilinishini bir qancha omillar, eng avvalo, SSSRda 1990 yil boshlariga kelib mustabid davlat siyosiy inqirozining kuchayganligi taqozo etdi. Shuningdek, bu inqiroz iqtisodiyotda va ijtimoiy-siyosiy sohada qilingan va markazning ittifoqchi respublikalarida yangilashga qaratilgan islohotlarni barbod bo'lishi bilan ham namoyon bo'ldi. 1990 yil oxirlariga kelib SSSR tarkibidan Litva, Latviya, Estoniya, Gruziya, Azarbayjonning chiqib ketishi SSSRning davlat butunligiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston xalqi oshkoralik va demokratiyalashdan, milliy va madaniy qadriyatlarni tiklashdan, o'z haq-huquqlarini, o'z taqdirini o'zi belgilash va iqtisodiy hamda siyosiy jihatdan



tuzilmalariga qaramlikdan xalos bo'lish huquqlarini amalga oshirishdan tobora ko'proq manfaatdor ekanliklarini ochiq namoyon qila boshladilar. O'zbekistonning mustaqilligi yo'lidagi yana bir muhim qadam O'zbekiston SSR Oliy Kengashining XII-chaqiriq 2-sessiyasida (1990 y 20 iyun) qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Mustaqillik Deklaratsiyasi»dir. Unda o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'analari hisobga olindi. Deklaratsiya 12-moddadan iborat bo'lib, uning 1-moddasida «O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarni belgilashda tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir», deb yozib qo'yilgan. «Mustaqillik Deklaratsiyasi» xalqimiz tomonidan zo'r mamnuniyat bilan kutib oldi. Shu kundan boshlab respublikada O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilinadigan bo'ldi. Bunga misol tariqasida, 1991 yil 22 iyul O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi qarorida Prezident huzuridagi Vazirlar mahkamasiga ittifoqqa bo'ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning O'zbekiston SSR huquqiy tobeligiga o'tishi tarkibini belgilash vazifasi topshirildi. O'sha vaqtda Markaz rahbarlari respublikalar ittifoqini qanchalik saqlab qolishga urinmasinlar buning iloji yo'q edi. Chunki endi eskicha tartib bilan mamlakatni idora etib bo'lmas, o'z navbatida ittifoqdosh respublikalarni mustaqillikka bo'lgan intilishi tobora kuchayib borardi. Ta'kidlash lozimki, mazkur hujjat O'zbekiston qonunlarining Ittifoq qonunlaridan ustivorligini ta'minladi. Shu bilan birga, «Mustaqillik Deklaratsiyasi» O'zbekistonning 1991 yil 31 avgustga qadar mavjud bo'lgan boshqaruv, huquqiy faoliyatini ta'minladi. 1991 yil 11 yanvarida mamlakat Prezidenti qishloq aholisiga bevosita amaliy yordam berish uchun navbatdagi Farmonga imzo chekdi. Mazkur Farmon 1989 yilda boshlangan haqiqiy yangilanishlarning mantiqiy davomi edi. Prezident imzolangan hujjatda 1991 yilda paxta ekin maydoni qisqartirilishini nazarda tutib, tomorqa maydonlariga 108,5 ming gektar yer ajratish ko'rsatilgan. 1991 yil 14 fevralda O'zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari to'rtinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada mamlakat Prezidenti I.A.Karimov nutq so'zladi. Mazkur nutq matbuotda murakkab vaziyatda oqilona siyosat yuritaylik», degan sarlavhada chop etildi. Ushbu nutqida O'zbekiston rahbari Ittifoq shartnomasiga o'z munosabatini bildirib, O'zbekistonning bu shartnomaga kirmasligini qayd etib o'tdi. 1991 yil Nasro'z bayrami arafasida Prezident avf etish to'g'risidagi Farmonga imzo chekdi. Ushbu Farmon ham xalq tomonidan zo'r quvonch bilan kutib olindi. Qolaversa, amnistiyani o'sha davrda faqat ittifoq Prezidenti e'lon qilardi. 1991 yil



19 avgustga kelib, butun jahonni hayajonga solgan Moskvada davlat to'ntarishiga urinish bo'ldi.

To'ntarish tarafdorlarining asl maqsadlari ittifoqda yashovchi barcha xalqlarning mustaqillikka erishuviga yo'l qo'ymaslik hamda mamlakatdagi parokandalikdan foydalanib qolish edi. Lekin O'zbekiston rahbariyati mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni saqlash, respublika hududida favqulodda holat joriy etilishiga, Konstitusiyaga qarshi davlat to'ntarishini qo'llab-quvvatlash yo'lidagi ig'vokorona harakatlarga uchmaslik uchun o'zlarining butun imkoniyatlaridan foydalandilar. O'sha vaqtda O'zbekiston Prezidenti Hindiston safarida edi. Safardan qaytib 19 avgust kuni kechqurun Toshkent shahri faollari bilan uchrashib, qat'iy tarzda O'zbekiston nuqtai nazarini ma'lum qildi. Respublika rahbariyati: «Markazdan, kim bo'lishidan qat'i nazar, qonunga xilof ko'rsatmalarni bajarish mumkin emas», deb hisobladi. 20 avgustda O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma majlisi bo'ldi. Unda O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi. Prezident I.A.Karimov respublika aholisiga murojaat bilan chiqdi va O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishish yo'li qat'iy ekanligini ta'kidladi. O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan Favqulodda holat davlat komitetining g'ayrikonstitutsiyaviy, huququ qarshi qarorlari va boshqa ko'rsatmalari noqonuniy, deb e'lon qilindi. Shunday murakkab sharoitda, ya'ni markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlar tobora taranglashib, Markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan, har bir respublika o'z holiga tashlab qo'yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to'g'ri baholagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Kengash, sessiyasini chaqirish va unda O'zbekiston Mustaqilligi haqida Qonun qabul qilishni talab qildi. Chunki har bir milliy respublikaning chinakam teng huquqligi va mustaqilligi ta'minlangandagina tanazzuldan chiqish mumkin edi. Ayni shu maqsadlarni ko'zlab, jumhuriyat Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasi 1991 yil 31 avgustda o'z ishini boshladi. O'zbekistonning Mustaqil Davlat, deb e'lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Bularning barchasi oxir-oqibatda mustabid Sovet davlatini tag-tomiri bilan yemiradigan ichki ziddiyatlarga aylandiki, bu illatlar tuzum inqirozini muqarrar qilib qo'ydi. Sovet imperiyasi inqirozining asosiy sabablari nimalardan iborat edi?

Birinchidan, «ittifoq»ning inqirozga uchrashiga shu narsa sabab bo'ldiki, u avvalboshdan oq ixtiyoriy asosda emas, balki zo'ravonlik, tazyiq o'tkazish yo'li bilan «ittifoq»ga kirgan xalqlarning xohish-irodasiga zid ravishda tashkil etilgan edi.



Haqiqatdan ham, o'z mohiyatiga ko'ra bu qat'iy markazlashtirish tamoyillari asosida qurilgan va har qanday demokratik normalarni rad etuvchi davlat edi.

Ikkinchidan, sovet imperiyasi aslida chor samoderjaviyasining «merosxo'ri» sifatida mustamlakachilik siyosatini davom ettirdi, u butun-butun xalqlarning milliy manfaatlarini poymol qildi, butun «ittifoq» hududida bu xalqlarga yot bo'lgan sovetlar shaklidagi davlat hokimiyati tizimini tashkil etdi. Sovet davlatida rahbarlik vazifasi geografik, siyosiy, iqtisodiy va etnik jihatlardan ittifoq markazi qo'lida mustahkamlandi, ular aslida, ramziy jihatdan olganda, qandaydir, «markaz»ga uyushgan edi. Shunga binoan, Markaz bilan etnik chekka joylar (shu jumladan, O'zbekiston) o'rtasidagi munosabatlar asosan imperiyacha munosabatlar, ya'ni adolatsiz va Markazga mutloq bo'ysungan holda bo'lib keldi.

Uchinchidan, SSSR jahonga hukmron bo'lishga, rivojlangan kapitalistik mamlakatlardan ustunlikka da'vo qilgan edi, lekin u zamon sinoviga bardosh berolmadi. Bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan va taraqqiyotning demokratik yo'lini tanlagan mamlakatlar ustun bo'lib chiqdi. Jahon xalqlari siyosiy va iqtisodiy rivojlanishning sovet andozasi istiqbolsiz ekanligini tushunib yetdilar. Bu ham inqirozga uchrashishning muhim sabablaridan biri bo'ldi.

To'rtinchidan, «Ittifoq» inqirozga uchrashishning asosiy sabablaridan yana biri shu bo'ldiki, mustamlakachilik ahvoliga va turli-tuman kommunistik «eksperiment»larga duchor qilinishiga qaramasdan, o'zbek xalqi o'zining milliy g'ururini kelajakka, ozodlikka bo'lgan ishonchini yo'qotmadi, mustaqillik poydevorini qiyinchilik va katta yo'qotishlar bilan bo'lsa-da, qadamba-qadam qo'yib bordi. Buyuk avlodlardan meros bo'lib qolgan ma'naviy yetukligi, sabr toqati, Vatanga muhabbati, mehnatsevarligi va bunyodkorligi xalqni mustabid tuzumning dahshatli qatag'onlaridan omon saqladi, tobe bo'lib yashashni istamasligini ochiq namoyish qildi.

O'zbekiston xalqi azaldan o'z fikri-zikri bilan yashagan. O'zining qariyb 3000 yillik davlatchilik tarixida qisqa vaqtgina mustaqil yashagan. Ayniqsa keyingi oq va qizil saltanatning deyarlik 130 yil davom etgan hukumronligi o'z tarixiy davlatchiligiga ega bo'lgan Turkistonni mustamlaka va qaramga aylantirgandi. Bu zulmatga qarshi goh oshkora, goh pinhona kurashib keldi.

O'zbekistonning Mustaqillik sari qo'yilgan dastlabki qadamlari 1989 yil 23 iyunda Islom Abdug'aniyevich Karimovdek jasoratli inson davlat tepasiga kelganidan keyin boshlandi. Uning tashabbusi bilan O'zbekiston hukumati tomonidan 1989 yil 15 avgustda «Kolxozchilar, sovxoz ishchilari, fuqarolar, shaxsiy tomorqa xo'jaliklari va individual uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish



to'g'risida» maxsus qaror qabul qilindi. Garchi bu g'oya Ittifoq rahbarlariga yoqmagani bo'lsa ham, I.A.Karimov o'z fikridan qaytmay, uni sobitqadamlik bilan amalga oshira bordi. Natijada o'sha yilning 4 oyida aholiga qo'shimcha 90,7 ming gektar yer tomorqa sifatida berildi.

1989 yil 21 oktyabrda O'zbekiston Oliy Kengashining XI sessiyasi O'zbekistonning davlat tili haqidagi Qonunni qabul qildi. Ushbu qonunning qabul qilinishi madaniy-ma'naviy va siyosiy hayotida ro'y bergan g'oyat muhim voqea bo'ldi.

O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1990 yil 24-martda bo'lib o'tgan sessiyasida boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish, prezidentlik lavozimini joriy etish to'g'risida qaror qabul qilindi va O'zbekistonda ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi bo'lib prezidentlik lavozimi joriy etildi.

O'zbekistonning mustaqilligi yo'lidagi yana bir muhim qadam O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq ikkinchi sessiyasida (1990 y. 20 iyun) qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik Deklaratsiyasi»dir. Ushbu Deklaratsiyani qabul qilishda Respublika Oliy Soveti deputatlari jonbozlik ko'rsatdilar. «Mustaqillik Deklaratsiyasi»da har bir millat o'z taqdirini o'zi belgilashi, va bu holat Deklaratsiya qoidasi bilan kafolatlanishi ta'kidlandi. Unda o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'analari hisobga olindi. Deklaratsiya 12 moddadan iborat bo'lib, uning 1-moddasida «O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarni belgilashda tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir» deb yozib qo'yilgan. Sessiya qabul qilgan bu «Mustaqillik Deklaratsiyasi» xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi.

Endi O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilinishi bilan bog'liq qonunlar tizimini yaratish zarur edi. O'zbekiston erishgan istiqlolni mustahkamlash uchun mamlakatda referendum o'tkazishga qaror qilindi. 1991 yil 18 noyabrda Oliy Kengash VIII sessiyasi O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Shunga muvofiq 29 dekabrda «Siz Oliy Kengash tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilinishini ma'quullaysizmi?» mavzuida referendum o'tkazildi. Referendum yakuniga ko'ra unda qatnashgan aholining 98,2 foizi O'zbekiston mustaqilligini yoqlab ovoz berdi. O'zbekiston mustaqil respublika, deb e'lon qilinishi jahon jamoatchiligi tomonidan ham zo'r qoniqish bilan kutib olindi. Fikrimiz isboti sifatida Amerika Qo'shma Shtatlarining o'sha paytdagi Prezidenti Jorj Bushning I.Karimov nomiga yuborgan



telegrammasi hamda Shvesiya bosh vaziri K.Bilodtning telegrammalaridan ko'rish mumkin. 1991 yil 14 sentyabrda O'zbekiston Kompartiyasining favqulodda XXIII syezdida I.A.Karimov taklifi bilan O'zbekiston Kompartiyasi KPSS tarkibidan chiqqanligi e'lon qilindi. Partiyaning bundan buyon faoliyat ko'rsatmasligi e'tiborga olinib, ushbu partiya o'rnida Xalq Demokratik partiyasi tuzilganligi e'lon qilindi. O'zbekiston mustaqil davlat, deb e'lon qilingan kunning o'zidayoq mustaqil davlat ramzlarini joriy qilish yuzasidan amaliy choralar ko'rildi. O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida, respublika gerbining nusxasi va davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qaror qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasining ekspert guruhiga davlat bayrog'ining variantlari ustida ishlashni davom ettirish, Oliy Kengashning tegishli qo'mitalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda davlat bayrog'i, madhiyasi haqida qonun loyihalarini ishlab chiqib, navbatdagi sessiyaga taqdim etish vazifasi topshirildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 18 noyabrda bo'lib o'tgan VIII sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida» Qonunni qabul qildi.

Istiqlolning dastlabki bosqichida bosilib chiqqan «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» va boshqa bir qancha asarlari va nutqlarida bayon etilgan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining birinchi navbatdagi vazifalari keyinchalik g'oyat muhim ahamiyat kasb etgan «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», «Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish vazifalari» va boshqa asarlarida o'z rivojini topdi.

Istiqlol sharoitida odil demokratik jamiyat qurish vazifalarining ortib borishi, xalqaro ekstremistik, diniy aqidaparastlik harakatlarning mustaqilligimizga tahdidini hisobga olib, Islom Karimov jamiyatshunos olimlar bilan uchrashuvida (aprel 2000 yil), gazeta va jurnallar muxbirlarining savollariga javoblarida (fevral 1998 yil, avgust 1998 yil, iyun 2000 yil) milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini ishlab chiqish va ularni aholi o'rtasida keng targ'ib qilish, ayniqsa, yoshlarimiz ongiga singdirish zarurati bu murakkab, lekin muhim ishlarning yo'llari va usullariga e'tiborni kuchaytirdi.

Vatanimiz tarixini o'rganish, uning yangi kelajak avlodni tarbiyalashdagi tutgan o'rni, ahamiyati masalalari I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» (1998 yil avgust) nomli asarida keng bayon etib berildi. Yurtboshimiz haqqoniy millatning o'zligini anglashning poydevori, ma'naviy-mafkuraviy, g'oyaviy siyosiy ishlarimizning haqqoniy manbai ekanligini qayta-qayta taqqoslab ko'rsatadi.



Prezidentimiz har bir «siyosatchiman, arbobman degan odam, agar vijdoni bo'lsa, o'z xalqining tarixiy o'tmishini bilishi shart», degan vazifani qo'ydi.

O'tmish davrining murakkab vazifalari, qarama-qarshiliklari davlat rahbaridan boshqaruvning har xil usullarini, kerak bo'lsa, qattiqqo'llikni talab qiladi. Prezident Islom Karimov shunday vaziyatda xalq manfaatiga ma'qul keladigan har xil usullardan foydalanib, mamlakatni boshqarmoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy madaniyat 30 yillarda qattiq fojiaga uchradi. Inson xaq-huquqlarining poymol qilinishi kuchaydi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Shokir Sulaymon, Ziyo Said, Elbek, Batu, Qosim Sorokin kabi millatning yetuk ziyolilari qatag'on qilindi va xalqimiz ularning asarlarini o'kishdan uzoq vaqt maxrum bo'ldi. 40 — yillar oxirlarida fan va madaniyat VKP (b) MK ning 1946 yil Zvezda va Leningrad jurnallari haqidagi qarorlari qatag'onlar yangi to'liqlinining g'oyaviy asosi bo'lib xizmat qildi.

Yozuvchi va shoirlarning asarlarida o'rta asr va inqilobgacha bo'lgan davrdagi xalq tarixini, madaniyatini badiiy tasvirlash — o'tmishni qumsash, ideallarshirish deb ayblandi va ularga millatchi degan tamg'alar yopishtirildi. Shu kabilarga Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda va boshqa o'zbek yozuvchilari qoralandi. 1951 yilda Maqsud Shayxzoda. Shukrullo Yusupov, G'ulom Alimov va boshqa bir qator ijodkorlar antisovet millatchilik faoliyatida ayblanib qamoqqa olindilar va 25 yillik qamoq jazosiga hukm qilindilar. Shu yillari jamiyatshunos olimlardan bir guruhi, chunonchi, faylasuf V.Zohidov, iqtisodchi A.Aminovlar panturkizini tashviqot qilishda va burjua millatchilikda ayblanib ta'qib qilindi.

Qatag'on qilingan san'at, fan va madaniyat arboblari mustabid tuzum davrida haq-huquqsizlik qurboni bo'ldilar. 80 yillarning o'rtalariga kelib qatag'onlik to'likiniga nafaqat ijod ahli, balki xo'jalik hodimlari va davlat arboblari ham tortildi.

O'zbekistonda qonunchilik va huquqiy tartiblarni tiklash, partiya davlat organlarini kadrlar bilan mustaxkamlash degan niqoblar bilan markazdan katta vakolatga ega bo'lgan ma'sul hodimlarning desant guruhlari kela boshladi.

Uydurma, to'qib chiqarilgan paxta ishi va o'zbeklar ishi deb ishlarga siyosiy tus berildi. Oqibatda go'yoki butun O'zbekiston jinoyatchilar makoniga aylanib qolgandek tasavvur uyg'otishga harakat qilindi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng paxta ishi qayta ko'rib chiqildi va minglab begunoh kishilar oqlandilar. O'z navbatida O'zbekistonning mohir, Sh.R.Rashidovning pok nomi tiklandi. Shuningdek, mehnatkash o'zbek xalqining yuzi yorug' ekanligi asoslandi.



REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovidir.Toshkent O'zbekiston. 2017 yil.
2. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b. 3.
3. “XXI asr pedagogikasining dolzarb vazifalari”Xalq ta'limi”, 2007-yil
4. O 'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: “ O 'zbekiston” , 1999.
5. K arim ov I.A. O 'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, m afkura. T. 1. - T.: O 'zbekiston, 1996.
6. K arim ov I.A. V atan sajdagoh kabi m uqaddasdir. T.3. -T.: “O 'zb ek isto n ” ,
7. K aritnov I.A. Bunyodkorlik y o lid a n T.4. -T.: “O 'zbekiston” , 1996.
8. K arim ov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. —T.: “O 'zbekiston”
9. Problems of the effective use of irrigated land in Bukhara region and ways to improve them SNBurxonov O Khamidov, D Sh Yavmutov E3S Web of Conferences 431 (01056), EDP Sciences
10. Development of " Green economy" in the sectors of the economy and its prospects SN Burxonov Academic research in educational sciences 3 (5), 1332-1337
11. <https://lex.uz/docs/-5297046#-5297465>



RIVOJLANAYOTGAN SPORT TURIZMI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Sharifova Nafisa Faxriddin qizi

Xalqaro Kimyo universiteti, Turizm fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola sport turizmining rivojlanib borayotgan sohasini o'rganishga, uning rivojlanish bosqichlarini, asosiy metodologiyalarini va maqsadlarni boshqarish oqibatlarini o'rganishga qaratilgan. Mavjud adabiyotlarni sintez qilish, turli xil tadqiqot usullarini qo'llash va empirik topilmalarni taqdim etish orqali tadqiqot iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanish uchun sport turizmining barcha imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha tushunchalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Sport turizmi, rivojlanish bosqichlari, manzillarni boshqarish, iqtisodiy ta'sir, barqaror turizm.

Kirish:

Sport turizmi butun dunyo bo'ylab yo'nalishlar uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadigan keng turizm sanoatining muhim sohasi sifatida paydo bo'ldi. Sport tadbirlarining jozibasini sayohat tajribalari bilan birlashtirib, u iqtisodiy o'sishni, jamoatchilikni jalb qilishni va madaniy almashinuvni boshqaradigan dinamik kuchga aylandi. Biroq, uning potentsialidan to'liq foydalanish uchun rivojlanish bosqichlarini, asosiy metodologiyalarni va manzilni boshqarish oqibatlarini tushunish juda muhimdir.

Adabiyot Tahlili:

Mavjud adabiyotlarni sinchkovlik bilan o'rganish sport turizmining ko'p qirrali xususiyatini ochib beradi. Olimlar Olimpiada va FIFA Jahon chempionati kabi mega-tadbirlardan tortib golf turizmi va sarguzasht sportlari kabi o'ziga xos tadbirlarga qadar turli xil tipologiyalar va tasniflarni aniqladilar. Bundan tashqari, tadqiqotlar sport turizmining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta'sirini ta'kidlab, uning maqsadli Brendlash, infratuzilmani rivojlantirish va daromad olishdagi rolini ta'kidladi. Biroq, bo'shliqlar sport turizmining nozik dinamikasini, shu jumladan mehmonlarning motivatsiyasi, manzil raqobatbardoshligi va manfaatdor tomonlarning hamkorligini tushunishda davom etmoqda.

Usullari:

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun ushbu tadqiqot sifatli va miqdoriy tahlillarni birlashtirgan aralash usul yondashuvidan foydalanadi. Intervyu va fokus-guruhlar kabi sifatli usullar manfaatdor tomonlarning istiqbollari to'g'risida



tushuncha beradi, miqdoriy usullar, shu jumladan so'rovlar va statistik modellashtirish turistik xatti-harakatlar va iqtisodiy natijalar to'g'risida empirik ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu usullarni uchburchak qilib, tadqiqot sport turizmi dinamikasi va ularning manzilni boshqarish uchun ta'siri haqida keng qamrovli tushuncha berishga qaratilgan.

Natijalar:

Sport turizmi sportning hayajonini sayohat sarguzashtlari bilan birlashtirgan o'sib borayotgan sektor. Bu erda uning rivojlanish bosqichlari:

- Paydo bo'lish: Sport turizmi o'ziga xos bozor sifatida boshlandi, ishqibozlar Olimpiada yoki Jahon chempionati kabi yirik sport tadbirlarida qatnashish uchun sayohat qilishdi. Ushbu bosqichda bag'ishlangan muxlislarning kichik guruhi tomonidan vaqti-vaqti bilan qiziqish paydo bo'ldi.

- Kengayish: globallashuv kuchayib, sayohat yanada qulayroq bo'lganligi sababli, sport turizmi kengayib, marafonlar, golf musobaqalari, tennis bo'yicha katta zarbalar va sport musobaqalari kabi keng ko'lamli tadbirlarni o'z ichiga oldi. Ushbu bosqichda sport ixlosmandlari uchun maxsus ovqatlanadigan ixtisoslashgan turoperatorlar va sayyohlik agentliklari paydo bo'ldi.

- Diversifikatsiya: diversifikatsiya bosqichi sarguzasht sport turizmining yuksalishiga guvoh bo'ldi, bu erda sayohatchilar chang'i, bemaqsad, toshga chiqish va ekstremal sport musobaqalari kabi adrenalinni jalb qilish tajribalarini izladilar. Yo'nalishlar o'zlarining noyob sport takliflari asosida o'zlarini sotishni boshladilar va turli xil sayyohlarni jalb qildilar.

- Integratsiya: ushbu bosqichda sport turizmi maqsadli marketing strategiyalariga qo'shildi. Shaharlar va mintaqalar sport infratuzilmasiga sarmoya kiritishni va mehmonlarni jalb qilish va ularning iqtisodiyotini rivojlantirish uchun yirik tadbirlarni o'tkazishni boshladilar. Sport tadbirlari turizmning muhim haydovchilariga aylanib, sport majmualari, stadionlar va mehmonxonalarining rivojlanishiga olib keldi.

- Ixtisoslashuv: turizm sohasidagi raqobat kuchaygani sayin, yo'nalishlar o'zlarini farqlash uchun muayyan sport turlari yoki tadbirlarga ixtisoslasha boshladi. Ba'zi mintaqalar ma'lum sport chempionatlarini o'tkazish yoki sportchilar uchun ajoyib mashg'ulotlar o'tkazish bilan mashhur bo'lishdi.

- Innovatsiya: innovatsion bosqich sport turizmi tajribasini oshirish uchun texnologiyadan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bunga immersiv tajribalarni taqdim etish uchun virtual haqiqatdan foydalanish, voqealar haqida ma'lumot va chiptalar



uchun mobil ilovalar va sayohat tajribalarini almashish va boshqa sport ixlosmandlari bilan bog'lanish uchun ijtimoiy media platformalari kiradi.

•Barqarorlik: atrof-muhit va ijtimoiy muammolar to'g'risida xabardorlikning o'sishi bilan barqaror sport turizmi amaliyoti tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yo'nalishlar ekologik toza tashabbuslarni qabul qilmoqda, mas'uliyatli turizmni targ'ib qilmoqda va uzoq muddatli hayotiylikni ta'minlash va salbiy ta'sirlarni minimallashtirish uchun mahalliy jamoalarni sport tadbirlariga qo'shmoqda.

•Globallashuv: bugungi kunda sport turizmi global hodisadir, voqealar va yo'nalishlar dunyoning barcha burchaklaridan ishtirokchilar va tomoshabinlarni jalb qiladi. Sanoat rivojlanishda davom etmoqda, bu texnologik yutuqlar, iste'molchilarning xohish-istaklarini o'zgartirish va yangi sport va tadbirlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Har bir bosqich avvalgisiga asoslanib, sayyohlik sanoatining asosiy segmenti sifatida sport turizmining umumiy o'sishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Sport turizmi odamlar sport tadbirlarida, musobaqalarda yoki tajribalarda qatnashish yoki tomosha qilish uchun sayohat qiladigan ko'plab tadbirlarni o'z ichiga oladi. Sport turizmining ayrim turlari va o'ziga xos xususiyatlari:

Tadbirlarga asoslangan turizm: bu Olimpiada, FIFA Jahon chempionati, Superkubok, Uimblon yoki Tour De France kabi yirik sport tadbirlarida qatnashish uchun sayohat qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu tadbirlar ko'pincha olomonni jalb qiladi va mahalliy iqtisodiyot va infratuzilmaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Sarguzashtli Sport turizmi: sarguzasht izlovchilar toqqa chiqish, oq suvda rafting, bungee jumping, parashyutdan sakrash yoki paraplan parvozi kabi tadbirlar uchun maxsus yo'nalishlarga sayohat qilishadi. Ushbu yo'nalishlar ko'pincha tabiiy landshaftlari va qiyin erlari uchun tanlanadi.

Sportda ekoturizm: bu piyoda, trekking, tog ' velosipedi yoki yovvoyi tabiat safari kabi sport turlari uchun uzoq yoki ekologik ahamiyatga ega joylarga sayohat qilishni o'z ichiga oladi. Ishtirokchilar o'zlarining sport manfaatlarini ko'zlagan holda tabiat bilan shug'ullanishga intilishadi.

Madaniy Sport turizmi: ba'zi sport turlari ma'lum mintaqalar yoki mamlakatlar bilan bog'liq chuqur madaniy ahamiyatga ega. Masalan, Yaponiyada sumo kurashi, Ispaniyada buqalar kurashi yoki Hindistondagi kriket. Sayohatchilar mahalliy sport madaniyatiga sho'ng'ish uchun ushbu yo'nalishlarga tashrif buyurishlari mumkin.

Salomatlik va sog'lomlashtirish turizmi: Sport turizmi, shuningdek, yoga dam olish, sog'lomlashtirish kurortlari yoki fitnes lagerlari kabi salomatlik va sog'lomlashtirish maqsadida sayohat qilishni ham o'z ichiga oladi. Ishtirokchilar ta'til



tajribasidan zavqlanib, jismoniy tayyorgarligini, ruhiy farovonligini va umumiy sog'lig'ini yaxshilashga intilishadi.

Golf turizmi: Golf ixlosmandlari ko'pincha nufuzli ko'katlarda o'ynash va hashamatli qulayliklardan bahramand bo'lish uchun dunyodagi mashhur golf maydonchalariga sayohat qilishadi. Qo'shma Shtatlardagi Shotlandiya, Irlandiya va Pebble Beach kabi yo'nalishlar butun dunyo bo'ylab golf sayyohlarini jalb qiladi.

Tomoshabin turizmi: bu sport tadbirlarini ishtirokchi emas, balki tomoshabin sifatida tomosha qilish uchun sayohat qilishni o'z ichiga oladi. Muxlislar o'zlarining sevimli jamoalarini yoki sportchilarini qo'llab-quvvatlash uchun sayohat qilishadi, bu esa chiptalarni sotish, turar joy va tegishli xarajatlar orqali mezbon shaharga sezilarli iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi.

Sport o'quv-mashg'ulot yig'inlari: sportchilar ma'lum bir sport turida o'z mahoratini va ko'rsatkichlarini oshirish uchun ixtisoslashtirilgan o'quv muassasalariga yoki lagerlarga borishlari mumkin. Ushbu lagerlar ko'pincha murabbiylik, zamonaviy jihozlar va professional murabbiylarga kirishni taklif qiladi.

Sport turizmining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Mavsumiylik: ko'pgina sport turizmi faoliyati mavsumiy bo'lib, ob-havo sharoiti, musobaqalar jadvali yoki madaniy tadbirlar kabi omillarga bog'liq.

- Iqtisodiy ta'sir: Sport turizmi mezbon yo'nalishlarga sezilarli iqtisodiy ta'sir ko'rsatishi, mahalliy biznes, ish o'rinlarini yaratish va infratuzilmani rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin.

- Infratuzilma talablari: yirik sport tadbirlarini o'tkazish ko'pincha infratuzilmaga, shu jumladan stadionlarga, transport tarmoqlariga va turar joylarga katta sarmoyalarni talab qiladi.

- Sog'liqni saqlash va xavfsizlik masalalari: muayyan sport turizmi faoliyatida ishtirok etish sog'liq va xavfsizlik uchun xavf tug'dirishi mumkin, tegishli choralar va sug'urta qoplamasini talab qiladi.

- Atrof-muhitga ta'siri: sarguzasht sport turizmi va ekoturizm atrof-muhitga ta'sir qilishi mumkin, shu jumladan yashash joylarining buzilishi, chiqindilar paydo bo'lishi va uglerod chiqindilari. Ushbu ta'sirlarni minimallashtirish uchun barqaror amaliyotlar zarur.

- Madaniy sezgirlik: Sport turizmi bilan shug'ullanadigan sayohatchilar mahalliy urf-odatlar, urf-odatlar va qoidalarga, ayniqsa madaniy yoki diniy ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarga hurmat bilan qarashlari kerak.



Muhokama:

Muhokama ushbu topilmalarning maqsadli boshqaruv amaliyotchilari, siyosatchilar va sanoat manfaatdor tomonlari uchun ta'siri atrofida. Iqtisodiy rivojlanish katalizatori sifatida sport turizmidan foydalanish strategiyalari va maqsadli Brendlash sport infratuzilmasiga investitsiyalar, tadbir tashkilotchilari bilan hamkorlik va madaniy merosni turizm tajribasiga integratsiyalashni o'z ichiga olgan holda o'rganiladi. Bundan tashqari, ekologik tanazzul va ijtimoiy ko'chish kabi sport turizmining salbiy oqibatlarini yumshatishda barqarorlikning roli ta'kidlangan. Sport turizmi tashabbuslarining uzoq muddatli hayotiyiligini ta'minlash uchun davlat-xususiy sheriklik va jamoatchilikni jalb qilishni o'z ichiga olgan hamkorlikdagi yondashuvlar taklif etiladi.

Xulosa va takliflar:

Ish sohalarni saqlash va almashtirish

Photoshop dasturi joriy ochilgan panellar, ularning o'lchamlari va joylashishini saqlab olish imkoniyatini beradi. Saqlab olingan ish sohasini istalgan vaqtda qayta 11 tiklab olish mumkin. Saqlangan ish sohalari nomlari dasturing Windows menyusini Workspace bo'limida aks ettiriladi.



SAQLASH VA EKSPORT QILISH

Photoshop dasturida bajarilgan o'zgarishlarni joriy faylga saqlash uchun dasturning File menyusidan Save buyruq qatorini tanlash kerak. Bajarilgan o'zgarishlarni boshqa faylga saqlash uchun File menyusidan Save As buyruq qatori tanlanadi.

Faylni boshqa nom, joylashish va formatda saqlash uchun quyidagilarni bajarish kerak:

1. Dasturning File menyusidan Save As buyruq qatori tanlanadi.
2. Natijada ochilgan dialog oynasidan Format elementiga fayl turi, File name elementiga fayl nomi va fayl joylashishi ko'rsatiladi.
3. Dialog oynasining Save tugmasi bosiladi. Photoshop dasturi quyidagi kengaytmali grafik fayl turlarini qo'llaydi: PSD, PSB, BMP, GIF, DCM, EPS, IFF, JPEG, PCX, PDF, RAW, PNG, TIFF.

Photoshop dasturi eni va bo'yi 300 000 piksel o'lchamigacha bo'lgan tasvirlar bilan ishlay oladi. Tasvirning eni va bo'yi 30 000 pikseldan yuqori bo'lganda saqlash uchun quyidagi uch turdagi fayl kengaytmasi qo'llaniladi:

- PSB - istalgan hajmdagi fayllarni qo'llaydi;
- RAW - istalgan hajmdagi fayllarni qo'llaydi, ammo qavatlarni saqlamaydi;
- TIFF - 4GB o'lchamigacha bo'lgan fayllarni qo'llaydi.

Dastur yordamida tasvirdagi qavatlarni PSD, BMP, JPEG, PDF va TIFF kengaytmasiga ega alohida fayl sifatida saqlash imkoniyati mavjud. Buning uchun quyidagilarni bajarish kerak:

1. Dasturning File menyusida Export bo'limidan Layers To Files buyruq qatorini tanlash kerak.
2. Dialog oynasining Destination bo'limida eksport qilinayotgan fayllar joyi belgilanadi. Belgilanmagan holda eksport qilinayotgan fayllar joriy fayl joylashgan papkaga joylanadi.
3. Dialog oynasining File Name Prefix bo'limida eksport qilinayotgan fayllar uchun umumiy nom prefiksi belgilanadi.
4. Visible Layers Only elementini belgilash orqali faqatgina aks ettirilgan qavatlar eksport qilinadi.
5. Dialog oynasining File Type bo'limida eksport qilinayotgan fayllarning kengaytmasi belgilanadi.
6. Dialog oynasining Run tugmasini bosib eksport jarayoni amalga oshiriladi.



GLOSSARIY

Alfa kanal – maskalarni saqlash uchun mo'ljallangan tasvirning qo'shimcha kanali.

Andoza – oldindan tayyorlangan hujjat yoki element.

Asosiy rang – tasvirdagi birlamchi rang.

Belgilash – biror bir amal bajarish maqsadida tasvirdagi piksellarni ajratish.

Deformatsiyalash – tasvir shaklini ixtiyoriy o'zgartirish.

DPI – piksellar zichligini o'lchov birligi.

Gradiyent – bir nechta ranglarni bosqichma bosqich aralashishi.

Hujjat – dasturning asosiy ishlash obyekti.

Kengaytma – fayl turini belgilovchi va fayl nomida (.) nuqtadan keyin keladigan qism.

Klonlash – tasvirning qismini nusxalash.

Kontent – tasvir qavatida joylashgan piksellar to'plami.

Metadata – biror bir axborot to'g'risida ma'lumot beruvchi axborotlar to'plami.

Natija rangi – aralastirish jarayonidan keyingi rang.

Nisbiy nuqta – barcha o'zgartirishlar amalga oshiriladigan belgilangan nuqta.

Nuqtalar zichligi – tasvirning bo'yi va eni bo'ylab umumiy piksellar soni.

O'lcham andozasi - oldindan belgilangan o'lcham va xususiyatlar.

O'rta tonlar – tasvirning yorqin va soya ranglari o'rtasidagi ranglar.

Perspektiva yuzasi – tasvirni uning perspektivasiga mos ravishda tahrirlash maqsadidagi Vanishing Point dialog oynasida belgilanadigan yuza.

Piksel – tasvirning eng kichik elementi.

Posterlash – tasvirning ranglar sonini kamaytirish.

Qavat – ustma ust joylashgan, tasvirni tashkil etuvchi elementlar.

Qavat maskasi – piksellar zichligiga bog'liq bo'lgan rastrli tasvir.

Qorishma rang – chizish yoki tahrirlash uskunalarini ta'sirida joriy etiladigan rang.

Ranglar balansi – tasvirdagi ranglar nisbati.

Ranglar palitrasi – old va orqa fon rangini belgilash uchun qo'llaniladigan soha.

Rastrli tasvir – piksellardan tashkil topgan tasvir.

Retush – tasvirni to'g'irlash uchun mo'ljallangan qayta ishlash amali.

Shovqin – rang qiymatlari ixtiyoriy ravishda taqsimlanuvchi piksellar to'plami.

Soya – tasvirning to'q ranglari.

To'ldirish – tasvirning belgilangan maydonini rang yoki andoza bilan to'ldirish.

Ton – kul rangning darajasi.



Transformasiya – belgilangan maydonni o‘zgartirish.

Tugmalar kombinatsiyasi – biror bir amalni bajarish uchun belgilangan klaviaturaning ikki yoki undan ortiq tugmalarini bir vaqtda bosilishi.

Uskuna – biror bir amalni bajarish uchun mo‘ljallangan element.

Vektorli maska – piksellar zichligiga bog‘liq bo‘lmay va pero yoki shakl uskunalari yordamida yaratiladigan element.

Vektorli tasvir – vektorlar yordamida ifodalanuvchi chiziqlar va egrilardan tashkil topgan tasvir.

Xolst – rasm chizishga tayyorlab qo‘yilgan oq rangdagi yuza.

Yo‘l – to‘g‘ri yoki egri vektorli shakl.

Yorug‘lik – rangning keskinligini belgilovchi rang xususiyati.

XULOSA

Har bir inson , goh talaba bo'lsin , goh o'qituvchi ilm o'rganishdan to'xtamasligi lozim. Qancha o'z ustida shug'ullansa, shuncha rivojlanadi odam. Har bir inson hozirda yashagan hayotidan-da go'zal hayot kechirishni, o'zi va oilasining kelajagi uchun bundan-da qulayliklar, shart-sharoitlar yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Hech kim oilasini o'g'ir mehnat qilib boqishni, oilasining extiyojlarini qondira olmaslikni xohlamaydi.

Foydaniilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovidir.Toshkent O‘zbekiston. 2017 yil.
2. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b. 3.
3. Adobe Photoshop CC Help, <http://help.adobe.com>, 2018
4. Rafael Concepcion, Adobe Photoshop CC and Lightroom CC for Photographers, Second Edition, Classroom in a Book, 2019
5. Andrew Faulkner, Conrad Chaves, Adobe Photoshop CC, Classroom in a Book, 2019
6. Problems of the effective use of irrigated land in Bukhara region and ways to improve them SN Burxonov O Khamidov, D Sh Yavmutov E3S Web of Conferences 431 (01056), EDP Sciences
7. Development of" Green economy" in the sectors of the economy and its prospects SN Burxonov Academic research in educational sciences 3 (5), 1332-1337
8. <https://lex.uz/docs/-5297046#-5297465>



ТАЪЛИМ СИФАТИ: ЁНДАШУВ ВА ТАЪРИФЛАР

Ибрагимов Абдумалик Ганпарович

А. Авлоний номидаги миллий-тадқиқот институти, “Таълим сифатини баҳолаш ва бошқариш технологияларини такомиллаштириш” илмий-тадқиқот бўлими мудири, и.ф.н., доцент.

Тел: +99 897 110-72-70, E-mail:abdimalik1972@mail.ru

Мурадов Икром Турдибоевич

“Таълим сифатини баҳолаш ва бошқариш технологияларини такомиллаштириш” илмий-тадқиқот бўлими катта илмий ходими. Тел: +99 895 002-50-90, E-mail:muradov_ikrom@mail.ru

Останова Хуршидабону Гафуровна

Тошкент шаҳар педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази методисти, мустақил тадқиқотчиси

Аннотация: Ушбу мақола Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-630-сон Қонуни доирасида “таълим сифати” тушунчасини кўриб чиқишга бағишланган.

Таянч сўзлар: “Таълим тўғрисида”ги Қонун, таълим сифати, динамизм, структура, иерархия, стандартлар, таълим сифатини аниқлашга ёндашувлар.

Аннотация: Данная статья посвящена рассмотрению понятия «качество образования» в рамках Закона Республики Узбекистан от 23 сентября 2020 года «Об образовании» ЗРУ-№630.

Ключевые слова: Закон «Об образовании», качество образования, динамизм, структура, иерархия, стандарты, подходы к определению качества образования.

Annotation: This article is devoted to the consideration of the concept of “quality of education” within the framework of the Law of the Republic of Uzbekistan dated September 23, 2020 “On Education” LRU-№630.

Key words: Law “On Education”, quality of education, dynamism, structure, hierarchy, standards, approaches to determining the quality of education.

Бутун ўқув жараёнининг муваффақияти кўйилган мақсад сифатига боғлиқ. Мактабда таълим сифатининг мақсади ва натижаси ўсиб бораётган шахсининг умумий ривожланиши, унинг ўз тақдирини ўзи белгилашга, ўзини



Ўзи ривожлантиришга ва ижодкорликка, ўз ҳаётини ўзи ташкил етишга тайёрлиги билан белгиланади.

Агар мамлакатимиз мустақилликка эришгандан сўнгги тарихига назар соладиган бўлсак, “таълим сифати” тушунчасига 1997 йил 29 августдаги “Таълим тўғрисида”ги Қонуни ҳамда “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да урғу берилганлигини кўриш мумкин. Унда “...таълим сифати давлат таълим стандартларига мувофиқ келишини ташкил этиш ва таъминлаш мақсадида педагогика ва таълим соҳасида илмий тадқиқотлар ҳамда илмий-услубий қўлланмалар ишлаб чиқиш фаоллаштирилади” деб таъкидлаб ўтилган.

Олимлар таълим сифатини баҳолаш воситаларини ишлаб чиқиш ва баҳолаш тартиблари натижалари асосида таълим сифатини бошқаришни таъминлайдиган механизмларни излашга киришдилар. Олимлар ва ўқитувчилар бу тушунчанинг турли талқинларини илгари сурдилар. Кўтарилган мавзу бўйича нашр этилган адабиётларни ўрганиш натижалари шуни кўрсатадики, “таълим сифати” атамасининг моҳияти ва мазмуни турлича талқин қилинган. Масалан: фалсафий, социологик, педагогик, психологик, иқтисодий ва бошқалар.

Мутахассислар, менежерлар ва жамоатчиликнинг турли даражадаги таълим сифати масаласига бўлган эътиборининг доимий равишда ортиб бораётганини ҳисобга олсак, педагогика ва бошқа ижтимоий-гуманитар фанлар чорраҳасида фанлараро синтез самарали кўринади [3,5].

Ўтган йиллар давомида тайёрланган илмий адабиётларда “таълим сифати” тушунчасини кўриб чиқишнинг бир қанча ёндашувлари пайдо бўлди. Уларнинг ҳар бири маълум бир когнитив салоҳиятга эга.

Жумладан, таълим сифати муаммосига кенг қўламли илмий ёндашувлар қаторида биз А.И.Субетто ёндашувини ажратиб кўрсатамиз. Ушбу олимнинг талқинига кўра, “таълим сифати” қуйидаги белгилар мажмуасига эга:

- тизимлилик ва яхлитлик (бу ерда сифат объектлар ва жараёнларнинг хусусиятлари мажмуи тизими сифатида, қисмларнинг сифати эса умумий сифатни белгиламайди);
- структура ва иерархия (хусусиятлар иерархик тузилишга эга);
- динамизм (жараённинг сифати натижада ифодаланади);
- миқдор (яъни сифатнинг миқдорий ўлчови);
- ташқи ва ички кондиционерлик (потенциал, ички ва ташқи сифатнинг бирлиги);
- талаблар, эҳтиёжлар ва стандартларга мувофиқлиги [7].



Н.А.Селезневанинг фикрига кўра, таълим сифатини баҳолаш таълим сифатининг ўлчовидир, у мулкый ўлчовларнинг маълум бир “стандарт”, сифат стандартини акс эттирувчи асос билан боғлиқлигини ифодалайди. Н.А.Селезневанинг қарашларида таълим сифати илмий тадқиқотнинг кўп тузилмали объекти сифатида намоён бўлади. У, масалан, таълим сифати ва кадрлар тайёрлаш сифатини ўз ичига олади [6].

Ёндашувнинг ривожланишига олим М.М.Поташник катта ҳисса қўшди. Рус педагогика фанининг классиги таълим сифатини мақсадлар ва натижалар ўртасидаги муносабатлар, мақсадларга эришиш ўлчови сифатида тақдим этди. Бу ерда гап таълим жараёнининг салбий оқибатларини минималлаштириш ҳақида кетмоқда, яъни барча ҳолатларда биз фақат оптимал натижага эришишни назарда тутамиз [4].

Шунга ўхшаш хулоса А.А.Реаннинг позициясидан келиб чиқади. Таълим сифати таълим тизимини тартибга солиш механизми сифатида намоён бўлади, бу унинг оптимал ҳолатини белгилайди ва турли манфаатдор томонларнинг манфаатлари ҳамда эҳтиёжлари комбинацияси натижасидир [8].

Бизнинг фикримизча, В.Воротилов ва Г.Шапоренковалар томонидан таклиф қилинган илмий ёндашувларнинг таснифи бироз зиддиятли бўлса-да, қизиқарли кўринадди. Тадқиқотчилар турли позицияларни умумлаштириб, “таълим сифати”ни тушуниш учун қуйидаги ёндашувларни аниқлайдилар:

1) эришилган таълим сифати даражасининг шахс ва жамият эҳтиёжларига мувофиқлиги;

2) ваколатлар ва ижтимоий аҳамиятга эга шахсий фазилатларни шакллантириш;

3) таълим муносабатлари хусусиятлари, эришилган натижаларнинг жамият стандартлари, талабларига мувофиқлиги;

4) натижанинг шахс потенциал ривожланиши соҳасида башорат қилинган таълим мақсадларига мувофиқлиги;

5) таълим ташкилотининг жамият эҳтиёжларини қондириш қобилияти.

“Таълим сифати” тушунчасининг қисқача тизимлаштирилган мазмуни қуйида 1-жадвалда келтирилган.



1-жадвал

“Таълим сифати” тушунчасини аниқлашнинг асосий ёндашувлари.

Ёндашув муаллифи	“Таълим сифати” тушунчасининг мазмуни
М.М.Поташник	Таълим сифати – бу “мақсадлар (натижалар) инсоннинг потенциал ривожланиши зонасида фақат оператив тарзда белгиланиши ва башорат қилинишига қарамай, мақсадларга эришиш ўлчови сифатида мақсадлар ва натижалар ўртасидаги боғлиқликдир”.
А.И.Субетто	Таълим сифати мураккаб категория ва кўп қиррали муаммо бўлиб, уни хусусиятлар, тузилмалар тоифалари орқали аниқлаш мумкин, бу хусусиятлар, тизимлар, микдорлар, самарадорлик, баҳолаш, бошқариш ва бошқалар тўпламидир.
А.А.Реан	Таълим сифати қуйидагилар билан белгиланади: - аниқ таълим тизими даражасида ва аниқ таълим муассасаси даражасида таълим мақсадлари ва натижалари ўртасидаги мувофиқлик даражаси; - муайян шахснинг таълим натижаларини баҳолашда турли параметрлар ўртасидаги мувофиқлик (билим сифати, тегишли кўникмаларнинг ривожланиш даражаси, тегишли ижодий ва индивидуал қобилиятларнинг ривожланиши, шахсий хусусиятлар ва қиймат йўналишлари); - назарий билим ва кўникмаларнинг инсоннинг ўз билим ва кўникмаларини доимий равишда янгилаб туришга бўлган эҳтиёжининг ривожланиши билан ҳаётда ва касбий фаолиятда амалий фойдаланишга мувофиқлиги даражаси ҳисобланади.
В.П.Панасюк	Таълим сифати – бу унинг шахсиятни шакллантириш ва ривожлантириш учун ижтимоий мақсадларни амалга оширишга мослашиш қобилиятини, унинг таълим, ижтимоий, ақлий ва жисмоний ривожланишининг оғирлигини белгилайдиган хусусиятлар йиғиндиси.
В.П.Беспалько	Таълим сифати мураккаб хусусият бўлиб, бунда асосий кўрсаткич ажратилган ва мустақил параметрлар тўплами билан белгиланадиган билим сифати ҳисобланади.

Демак, бугунги кунда “таълим сифати” ҳақида қуйидаги иерархик даражаларда гапириш мумкин экан:

- ❖ халқаро даражада;
- ❖ республика ва ҳудудий даражада;
- ❖ таълим ташкилоти даражасида.

“Таълим сифати” тушунчасига олимлар томонидан турли хил ёндашувлар



ва таърифлар бериб ўтилган экан. Юқорида таъкидланган таърифларни “бирлаштириш”, улар асосида умумий талқинни ишлаб чиқиш ва шу муносабат билан таълим сифатини тушунишнинг ягона ёндашувини пайдо бўлишига туртки бўлади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб айтиш мумкин-ки, *“Давлат таълим стандартлари асосида жамият ва шахснинг таълим олишига бўлган эҳтиёжларига жавоб берадиган таълим жараёнлари таълим сифатини белгилаб беради” – деб, таъриф бериш мумкин.*

Демак, ноаниқликлар ва турли хил мунозараларнинг олдини олиш мақсадида “Таълим тўғрисида”ги Қонунда “таълим сифати” тушунчасига таъриф бериб кетилса, ўйлаймизки мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Зеро, қонун бир томондан, тайёргарлик даражасининг бутун стандартлар мажмуаси билан, иккинчи томондан, таълим муносабатлари иштирокчиларининг манфаатлари ва эҳтиёжлари билан боғлиқлигига асосланади. Қонун матнида келтирилган таъриф эса “таълим сифати” тушунчасининг ноаниқ талқинини учрамаслигига, ундан аниқ ва ўз ўрнида фойдаланишига имкон беради десак муболаға бўлмайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-630-сон Қонуни.

2. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августдаги “Таълим тўғрисида”ги Қонуни ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”.

3. Аймалетдинов, Т.А. Социологическая оценка качества высшего образования: теоретико-методологические подходы к исследованию. Т.А.Аймалетдинов, И. Е. Кузнецова // Мониторинг общественного мнения. - 2017. - № 5. - С. 3-12.

4. Поташник, М.М. Качество образования: проблемы и технологии управления. М.М.Поташник. - М.: Педагогическое общество России, 2002. - 352 с.

5. Потехина, И.П. Родители о качестве школьного образования: динамика мнений. И.П. Потехина, М.Н. Михалева // Образование и наука в России: состояние и потенциал развития: сборник научных трудов. Выпуск 2. - М.: Институт социально-политических исследований РАН, 2017.-С. 47-74.

6. Селезнева, Н.А. Качество высшего образования как объект системного исследования: лекция-доклад. Н.А.Селезнева. - Изд. 3-е. - М.:



Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2003. – 95 с.

7. Субетто, А.И. Качество непрерывного образования в Российской Федерации: состояние, тенденции, проблемы и перспективы (опыт мониторинга). А.И.Субетто. - СПб. М., 2000. - 498 с.

8. Чупрова, Л.В. Основные подходы к определению понятия «качество образования» в проблемном поле педагогики. Л.В.Чупрова, О.В.Ершова // Вектор науки Тольяттинского государственного университета. - 2014. - № 3.- С. 336-339.

9. Безуглова, Л.П. Образование и качество образования: теоретический аспект [Текст] / Л.П. Безуглова // Вестник социально-гуманитарного образования и науки. - 2014.- № 4. - С. 27-34.

10. Федеральный закон «Об образовании в Российской Федерации» № 273-ФЗ от 29 декабря 2012 года. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://zakon-ob-obrazovanii.ru/> – Дата обращения: 05.10.2018.

11. www.lex.uz

12. www.google.uz

13. www.cyberleninka.ru



TA'LIM SIFATINI BAHOLASH VA BOSHQARISHDA XALQARO TADQIQOTLAR: NATIJA VA REJALAR

Ibragimov Abdumalik Gapparovich – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, “Ta’lim sifatini baholash va boshqarish texnologiyalarini takomillashtirish” ilmiy-tadqiqot bo‘limi mudiri, i.f.n., dotsent.

Ostanova Xurshidabonu Gafurovna – Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi metodisti, mustaqil tadqiqotchi

Niyozova Ra’no Maxmudovna – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutining mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada respublikamizda o‘tkazilgan xalqaro baholash dasturi PISA 2022 tadqiqotlarining natijalariga sarhisobi, tadqiqot natijalari asosida qilinadigan ishlar, kelgusi reja va tadqiqotlar borasida fikr yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: Xalqaro baholash, ta’lim sifati, ta’lim menejmenti, OECD, PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, EGRA, EGMA.

Pandemiya davrida xalqaro mehnat bozoridagi talabning o‘zgaruvchanligi turli davlatlar kadrlar tayyorlash tizimini qayta ko‘rib chiqishga jiddiy talablar qo‘ydi. Bu borada maktab o‘qituvchilari va rahbarlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini intensiv amalga oshirish bilan bir qatorda, ta’limning evolyusion jarayoni, ijtimoiy muammolarning globallasuvi, o‘zaro bog‘liqlik va xalqaro raqobatni oshirish sharoitida ta’limni modernizatsiyalash, jamiyatni yangilash kabi vazifalarni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda fan-texnika va ta’lim taraqqiyotini ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda, mamlakatimiz ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarning asosiy maqsadi – ta’lim jarayoniga aniq ijobiy mazmun berib, o‘qituvchi va rahbar kadrlarni kasbiy rivojlantirish asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirishdir.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, maktab ta’limi tizimini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilandi:

ta’lim berishning zamonaviy nazariyalarini o‘zlashtirish, pedagogik psixologiyani tushunish, ta’lim berishga kompetensiyaviy hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko‘zda tutgan holda, pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish;



xalq ta'limi tizimi uchun boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini, shu jumladan ta'lim sohasiga yosh kadrlar kirib kelishini rag'batlantirishni qo'llab-quvvatlash;

avvalo chekka hududlarda joylashgan, o'quvchilar soni kam bo'lgan umumta'lim maktablari o'qituvchilariga qo'shimcha yangi ixtisosliklar va malakalarni o'zlashtirishga imkon beradigan ta'lim infratuzilmasini shakllantirish.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlab o'tganlaridek, "... adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta'lim-tarbiya masalasi bundan buyon ham doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o'qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak"[4].

Maktab, ijtimoiy institut sifatida, o'qituvchining salohiyatini eng to'liq va har tomonlama rivojlantirishga hissa qo'shadi. O'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishda innovatsion boshqaruv faoliyatini tashkil qilish, baholash va takomillashtirish, imkoniyatlar va istiqbollarni belgilash, o'zi tanlagan mutaxassisligi bo'yicha o'zining professional tarraqiyot yo'lini aniqlashi, uzluksiz malaka oshirish va ta'lim uchun tayyor bo'lishi bugungi davrning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Bu esa, xolisona, har tomonlama o'rganishni talab etuvchi yangi pedagogik vaziyatni yuzaga keltiradi.


O'zbekistonda maktab ta'limi sifatini oshirish, maktabda ta'lim muhitini yaxshilash va xalqaro reytinglarda mamlakat o'rnini oshirish bo'yicha qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Maktab ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq xalqaro baholash dasturlari asosida maktab o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholash bo'yicha 2022 yilda PISA xalqaro tadqiqotlari o'tkazildi.

Ushbu tadqiqotlarda O'zbekiston bo'yicha xalqaro talablar asosida 202 ta maktablar na'muna sifatida tanlab olindi va tadqiqot jarayonida 7293 nafar o'quvchilar ishtirok etishdi.

PISA (Programme for International Student Assessment) – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) homiyligida uch yilda bir marta o'tkaziladigan 15 yoshli o'quvchilarning malakalarini baholash bo'yicha keng ko'lamli nufuzli xalqaro qiyosiy tadqiqotlardir.




PISA 2022 tadqiqotlarining natijalariga ko'ra o'quvchilarimiz yo'nalishlar bo'yicha o'rtacha matematikadan 364 ball, o'qishdan 336 ball, tabiiy fanlardan 355 ball to'plashgan.



Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda raqobatbardosh ta'lim tizimini shakllantirishning eng muhim omillaridan biri zamonaviy ta'lim muhitini yaratish hisoblanadi. Zero, bunday ta'lim muhitining yaratilishi, istiqbolda yuqori intellektual salohiyatli kadrlar salmog'ini o'sishi, maktab o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi va dars sifatini yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot ma'lumotlaridan ko'rish mumkin-ki, mamlakatimiz o'quvchilarning maktab muhitiga moslashuvi bo'yicha bildirgan fikrlarini ijobiy baholash mumkin:



Bugungi o'quvchilar yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli yoshlardir. Bunday avlodni tarbiyalashda ustoz-murabbiylarning xizmati beqiyos. Ma'lum-ki, **hozir dunyoda mamlakatlarning taraqqiyot darajasi o'qituvchi-pedagoglarning jamiyatda tutgan o'rniga qarab belgilanmoqda.**

Darhaqiqat, **jamiyatni inson o'zgartiradi, ta'lim esa insonni o'zgartiradi.** Ta'lim markazida esa, avvalambor o'qituvchi turadi, shu sababdan, Konstitutsiyaning 52-moddasida o'qituvchining jamiyatda tutgan yuksak o'rnini yuqori darajada e'tirof etib, "O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.


Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi." deb, muhrlab qo'yildi.

Shu maqsadda, PISA 2022 tadqiqotlarida matematika o'qituvchilari borasida quyidagi fikrlarga "Har darsda" yoki "Aksariyat darslarda" deb javob bergan o'quvchilar foizi tahlil qilindi:

- O'qituvchi har bir o'quvchining o'rganishiga e'tibor qaratadi-77,7%;
- O'qituvchi o'quvchilarning o'rganishlarida yordam beradi-79,8%;
- O'quvchiga kerak bo'lganida o'qituvchi qo'shimcha yordam beradi-77,7%;



O'qituvchi o'quvchilar tushunishigacha qadar o'rgatishda davom etadi-76,9% kabi javoblar olindi.



Ushbu tadqiqotda O'zbekiston o'quvchilari birinchi marotaba PISA tadqiqotining testlarida qatnashishlariga qaramay o'z o'qituvchilariga xolisona baho berib, pedagog kadrlar tayyorlash borasida kelgusi chora-tadbirlarni ishlab chiqishga asos yaratganlar.

PISAning maqsadi turli mamlakatlardagi o'smirlarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim yutuqlarini solishtirma tahlil qilishdir. O'tkazilgan PISA 2022 tadqiqotlarining natijalari mamlakatimizda maktab ta'limi tizimidagi ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi.

Shuningdek, PISA 2022 tadqiqotlarining natijalari O'zbekistonda maktablarining maktablarining o'ziga xos xususiyatlari va muammolari, maktab o'qituvchilarining mehnat amaliyotlari, maktablarda o'quvchilar uchun ta'lim va raqobat darajalari, o'qituvchilar faoliyatini baholash va qayta aloqalarni amalga oshirish kabi masalalar va mavjud muammolarni aniqlab, ularni eng samarali usullar orqali yechishga yordam beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkin-ki, xalqaro baholash va solishtirma tadqiqotlar ta'lim va boshqaruv muhitini o'rganish, maktabni boshqarish va maktab avtonomiyasi qiyosiy natijalar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Xususan, PISA – ta'lim tizimini rivojlantirish *katolizatori* hisoblanib, natijaviy baholash ustivor



yo‘nalishlarni aniqlash uchun kerak bo‘ladi va u ta‘lim tizimida to‘g‘ri islohatlarni amalga oshirishga yordam beradi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, kelgusi xalqaro baholash tadqiqot dasturlariga tayyorgarlik, erishilgan yutuq va kamchiliklarni aniqlash, xalqaro baholash dasturi natijalari asosida umumta‘lim maktablarida ta‘lim sifatini baholash milliy tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda maktab o‘quvchilarining kelajakdagi xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik darajasini oshirishga doir takliflar tayyorlash ko‘zda tutilgan. Shuningdek, ta‘lim sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni olib boruvchi izlanuvchilarning ishlarida, maktab o‘qituvchilari malakasini uzluksiz rivojlantirish ishlarini tashkil etishda va maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligi ortishiga, shuningdek, umumta‘lim maktablarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Asosiy taklif va tavsiyalardan Respublikaning ta‘lim tizimi tarmoqlari, jumladan maktabgacha va maktab ta‘limi tizimiga kiruvchi turli mulkchilik shaklidagi muassasalarda, boshqa turdagi sub’ektlarda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi "O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsessiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
- Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohatlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2021 yil 7 noyabr, 223-son.
- A.Shlyayxer. *Образование мирового уровня. Как выстроить школьную систему XXI века?* per. s angl. / A.Shlyayxer. – M.: Izdatelstvo «Natsionalnoe obrazovanie», 2018– 328 s. – (Antologiya obrazovaniya).
- Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov. Ta‘lim sifatini boshqarish. – T.: “Turon Iqbol”, 2006. - 590 b.
- A.Radjiyev, F.Karimov, A.Ibragimov. TALIS-2018 Xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o‘tkazilgan so‘rovnoma va tadqiqot hisobotining ma’lumotlar to‘plami. 2-qism. Toshkent-2022. 119 bet.



MALAKA OSHIRISH INSITUTLARIDA TA'LIM SIFATINI BAHOLASH VA BOSHQARISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ostonova Xurshidabonu Gafurovna
Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodisti

Annotatsiya. Ushbu maqolada malaka oshirish insitutlaridagi ta'lim sifatini oshirish hamda baholash, shu bilan birga boshqaruv tizimini rivojlantirish hamda bu borada olib borilayotgan say-harakatlar va mexanizmlar haqida so'z boradi. Ta'lim sifatini boshqarishning xalqaro sifat standartlari, uning modellari va tarkibiy qismlari asoslab o'tilgan.

Аннотация. В данной статье описывается, что повышение качества образования и оценка его по показателям развития навыков, а также развитие системы управления, а также действия и механизмы, осуществляемые в связи с этим. В основу положены международные стандарты управления качеством образования, его модели и компоненты.

Annotation. This article describes that improving the quality and assessment of education in skills development indicators, as well as the development of the management system, as well as the actions and mechanisms carried out in this regard. The international quality standards for quality management of education, its models and components are based on.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, ta'lim sifati menejmenti, yondashuvlar, modellar, "Deming sikli", xalqaro sifat standartlari, "fransuz" metodi, "ingliz" metodi.

Ключевые слова: Качество образования, Управление качеством образования, подходы, модели, "цикл Деминга", международные стандарты качества, "французский" метод, "английский" метод.

Key words: Quality of education, Quality management of education, approaches, models, "Deming cycle", international quality standards, "French" method, "English" method.

KIRISH

Ta'lim va tarbiya eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda ta'lim natijalarini baholash samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali barcha insonlar uchun sifatli ta'lim olish imkoniyatlari yaratilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu esa o'z navbatida kadrlar



tayyorlash sohasi oldiga ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini zamonaviy talablar asosida oshirish vazifasini qo'ymoqda. Shu sababli ham bugungi kunda bo'lajak mutaxassislarni yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo'lishi talab etiladi.

Jahon amaliyotida muayyan mutaxassislar kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda ta'lim boshqaruvi natijaviyligiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, bunda asosiy urg'u ta'lim sifati menejmentiga qaratilmoqda. Bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar oliy ta'lim tizimini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari, sifati menejmenti va ta'lim sifati monitoringini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hamda ta'lim sifati va samaradorligi uyg'unligini ilmiy jihatdan asoslovchi takliflarni ishlab chiqish, oliy ta'lim sifati baholash tizimini takomillashtirish masalalariga qaratilgan. Respublikamizda kadrlar tayyorlash sohasida amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlar ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy talablariga mos keladigan, demokratik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ta'lim sifati boshqaruvini shakllantirishni taqozo etmoqda.

R.X.Jo'rayev va S.T.Turg'unovlarning fikricha, ta'lim menejmentining asosiy maqsadi ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish hamda samarali boshqarishni ta'minlashdan iborat. Ta'lim menejmentining funksiyalarini bajarish va maqsadga erishish metodlari L.I.Fishman, V.S.Bezrukova, V.A.Kalney, T.D.Makarovlarning ishlarida alohida ko'rsatib o'tilgan. Xorijiy olimlardan B.Burkhalter, B.Krumrine, J.Hackman, G.Kanji va boshqalarning tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati boshqarish, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash borasida yalpi sifati menejmenti tamoyillari va texnologiyalarini joriy etish masalalari o'rganilgan.

Ta'lim va ta'lim sifati tadqiq qilgan M.M.Potashnik, P.I.Tretyakov, T.I.Shamovalarning fikricha, ta'lim boshqaruvi fanining nazariy-metodologik asosini tizimli, funksional, sinergetik, faoliyatli, vaziyatli, refleksiv, milliy hududiy va natijaga asoslangan yondashuvlar tashkil etadi. Mazkur yondashuvlar ta'limda samarali boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim sifati menejmenti natijaviyligini kafolatlash uchun ta'lim muassasalari rahbar xodimlari boshqaruvga boshqaruv sub'ekti tomonidan amalga oshiriladigan uzluksiz, izchil faoliyat sifatida qarashi lozim bo'ladi. Bunda ta'lim jaryonlari



doimiy harakatdagi dinamik ijtimoiy tizim sifatida boshqaruv ob'ekti hisoblanadi va u ijtimoiy tizimlarga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni o'zida jamlaydi.

Ta'lim muassasasi va undagi ta'lim sifatini boshqarishga metodologik yondashuvlarni boshqaruvning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari va funksiyalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish lozim. Ta'lim sifatini boshqarish ta'limni boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi va uning samaradorligi ta'limning umumiy boshqaruvini sezilarli darajada oshishini ta'minlashi mumkin bo'lgan tuzilma hisoblanadi. Shuning uchun ham ta'lim sifati menejmenti ta'lim tizimidagi boshqaruv faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to'ldiradi va samarali natijaviyligini ta'minlaydi.

“Ta'lim sifati” so'z birikmasi mamlakatimizda ilk bor 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining ta'lim sifati ustidan davlat nazoratiga bag'ishlangan modda va bo'limlarida rasmiy ravishda qayd etilgan. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini ta'minlashga doir qator nazariy va amaliy ishlanmalarning yaratilishiga turtki bo'lmoqda. Sh.Qurbonov va E.Seytxalilovlarning tadqiqotlarida ta'lim sifati deganda ta'lim jarayonining turli ishtirokchilari ta'lim muassasasi tomonidan ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlaridan kutganlarining qanoatlantirilishi darajasi tushuniladi. N.Shmyreva, M.Gubanova va Z.Kresanlar ta'lim sifati – o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga doir ehtiyojlarni qondirishni ta'minlovchi ta'lim xizmatlari iste'mollilik xususiyatlarining majmuasi, deb hisoblaydi.

A.Voronin tomonidan ta'lim sifati – jamiyatda ta'lim jaraenining holati va natijasini, shaxsning fuqarolik, haetiy va kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishi hamda shakllanish ehtièjlari va umidlariga muvofiqligini aniqlovchi kategoriya tarzida talqin qilingan. Ye.Dombrovskaya ta'lim sifatini ta'limning Davlat ta'lim standartlari, tegishli ta'lim dasturining o'quv-dasturiy hujjatlari talablariga muvofiqligi, deb e'tirof etadi. Adabiyotlar tahlili umumlashgan ma'noda, ta'lim sifatiga inson ehtiyoji hamda jamiyat va davlat manfaatlarini qondiruvchi xususiyatlar yig'indisi sifatida qaralganligini ko'rsatadi. Yuqoridagi tavsiflardan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim sifati – ta'lim oluvchilar bilimining halqaro davlat standartlariga mosligi, turli darajalardagi ta'lim muassasasi sifat natijaviyligi, muassasaning muvaffaqiyatli faoliyati, shuningdek, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining innovatsion ta'lim xizmatlari sifatini ta'minlashdagi faoliyati natijasi hisoblanadi. Tadqiqotlar jarayonida “ta'lim sifati menejmenti”ni tavsiflashga bo'lgan turli yondashuvlarning mavjudligi qayd etildi, jumladan, Sh.Qurbonov,



E.Seytxalilovlar ta'lim sifatini boshqarish – muayyan ijtimoiy va pedagogik shart-sharoitlarning ta'siri oqibatida yuzaga kelgan va ko'p funksiyali vazifalarni o'z ichiga olgan tizim, deb ta'riflaydi. M.Potashnik, V.Panasyuk va boshqalar ta'lim sifatini boshqarishni raqobatbardosh mutaxassisni shakllantirishga bo'lgan ijtimoiy buyurtmani qondirishga yo'naltirilgan ko'p o'lchovli moslashuvchan tizim, deb hisoblaydi.

Tahlil qilingan tadqiqotlar ta'lim sifati boshqaruvi yo'nalishida turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi va ularni izohlab o'tish maqsadga muvofiq. Sifat menejmenti asoschisi V.Shuxart mahsulot sifatini har bir qismini nazorat qilishga asoslangan yondashuvni texnologik jarayonlarning bir me'yorda ishlashini ta'minlashga qaratilgan metodika bilan almashtirishni taklif qilgan. Uning sifatni doimiy yaxshilab borish zarurligi to'g'risidagi g'oyasi E.Deming tomonidan rivojlantirilib, ishlab chiqarish amaliyotiga PDCA (Plan-Do-Check-Act), ya'ni RBNH (RejalashtirishBajarish-Nazorat-Harakat) – “Shuxart-Deming metodi” yoki “Deming sikli” nomi bilan joriy etildi. Keyingi sifat menejmenti mutaxassisi A.Feygenbaum sifatni ishlab chiqish, qo'llab-quvvatlash va yaxshilash bosqichlaridan iborat bo'lgan Sifatning Yalpi Nazorati (Total Quality Control) tushunchasini kiritdi. Shuxart, Deming va Feygenbaumlar tomonidan joriy etilgan mazkur sifat menejmenti metodi asosida sifatni yalpi boshqarish konsepsiyasi (Total Quality Management – TQM) ishlab chiqildi. Uning mohiyati boshqarishning ta'lim muassasasini muvaffaqiyatiga olib boruvchi tamoyillaridan foydalanishdan iborat. TQM konsepsiyasida sifatni boshqarishga doir avvalgi konsepsiyalarga xos bo'lgan barcha ijobiy jihatlar o'z aksini topgan. U ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida ko'pgina zamonaviy menejment tizimlarining asosini tashkil qiladi. TQMning ko'pgina yondashuvlari ISO oilasiga kiruvchi xalqaro sifat standartlarining zamonaviy avlodi g'oyalari tarkibiga kiritilgan.

V.Nujdinning ta'kidlashicha, TQM tamoyilari va metodlarini ta'lim xizmatlari sohasiga moslashtirish natijasida sifatni rejalashtirish, nazorat qilish va yaxshilash faoliyat turlarini ajratib olish imkoniyati paydo bo'lgan. Dastlab iqtisodiyotning sanoat sektori uchun ishlab chiqilgan TQM tamoyillari xorijiy ta'lim muassasalarini boshqarish amaliyotida keng foydalanilgan, AQSh ta'lim tizimida 1985 yildan boshlab TQM qo'llanila boshlangan va 1996 yilga kelib sifatni takomillashtirish tamoyillaridan 252 ta'lim muassasalarida foydalanila boshlangan.

XULOSA

Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o'quv-biluv jarayonlarini sifatli tarzda boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni, demokratik,



insonparvarlik tamoyillarga asoslangan ta'lim boshqaruvini shakllantirish zarurligini talab qilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sohasining sifat bosqichida mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifati va samaradorligini doimiy tarzda oshirib borish zarurati maktab o'qituvchilari kasbiy-pedagogik kopmetensiyalarini yanada rivojlantirish, ulardagi ta'lim sifatini boshqarishni zamon talablari darajasida tashkil etishni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraxmanova J.N., Toshtemirova S.A. (2020). Innovatsion texnologiyalar va axborot madaniyatini shakllantirish pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri. *Science and Education*.1(7). 436-442
2. Mustafaqulov A.A. Pedagogik kadrlarni yalpi sifat boshqaruvi sharoitida tayyorlash tizimi / Ped. f. f. dok.diss. –T.: 2019.
3. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // *Uzluksiz ta'lim*. № 1 (86). - S.5.
4. Селезнева Н.А. Качество высшего образования как объект системного исследования: лекция-доклад. - М.: 2001. – 79 с.



GIPOTERIOZ BILAN KASALLANGAN ONADA YO'LDOSH TO'QIMASINING PATOMORFOLOGIK VA MORFOMETRIK O'ZGARISHLARI

*Patologik anatomiya kafedrasida assistenti
PhD Allaberganov Dilshod Shavkatovich
Patologik anatomiya yo'nalishi magistratura talabasi
Muxtorova Maxarram Azim qizi
Patologik anatomiya yo'nalishi magistratura talabasi
Mansurova Kamila Maxmud qizi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada gipoterozning kelib chiqishi, uning salbiy oqibatlar va jiddiy asoratlari, bugungi kunda kasallikning tarqalishi, gipoterozda ayollarda anatomik va gistologik o'zgarishlari.

Kalit so'zlar: *gipoteroz, endokrin kasalliklar, kasallikning tarqalishi, yod tanqisligi, tiroksin, yo'ldosh to'qimasi, TTG, hayz siklining buzilishi.*

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda reproduktiv yoshdagi xotin qizlarda qalqonsimon bez faoliyatining keskin susayib ketishi, yetishmasligi holatlari ko'plab holatlarda uchramoqda.

Gipoterozning belgilari sifatida toliqish, jismoniy va ruhiy zaiflik, uyquchanlik, xotira susayishi, qovoqlar shishishi, teri quruqlashishi, soch to'kilishi, qabziyat, asosiy moddalar almashinuvi buzilishi, ayollarda hayz siklining buzilishi, bepushtlikni keltirib chiqishini olishimiz mumkin.

Yod tanqisligi mavjud mintaqalar, jumladan O'zbekistonda qalqonsimon bez soxasidagi muammolar ko'p uchraydi, bunga misol tariqasida reproduktiv yoshdagi xotin qizlarda hayz siklining buzilishi, gormonal bepushtlikka olib kelishini ko'rsatishimiz mumkin.

ASOSIY QISM

So'nggi yillarda ayollar salomatligining muhofazasi dunyo miqyosida dolzarb muammo hisoblanadi. Yod tanqisligi mavjud mintaqalar, jumladan O'zbekistonda qalqonsimon bez soxasidagi muammolar ko'p uchraydi, bunga misol tariqasida reproduktiv yoshdagi xotin qizlarda hayz siklining buzilishi, gormonal bepushtlikni misol qilib keltirishimiz mumkin.



Bugungi kunda mamlakatimizda reproduktiv yoshdagi xotin qizlarda qalqonsimon bez faoliyatining keskin susayib ketishi, yetishmasligi holatlari ko'plab holatlarda uchramoqda. Gipoterioz endokrin kasalliklari qatoriga kiradi, u klinik sindrom bo'lib uzoq vaqt davomida organizmdagi qalqonsimon bez gormonlarining qat'iy yetishmasligi yoki ularning to'qimalar darajasida biologik ta'sirining pasayishi natijasida yuzaga keladi.

Gipoterioz kelib chiqishida ko'plab sabablar va omillar bo'lishi mumkin. Ular birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi toifadagi gipoteriozga ajratiladi va aniqlanadi. Birlamchi gipoterioz rivojlanishiga olib keladigan jarayon bevosita qalqonsimon bezda shakllanadi va lokalizatsiya qilinadi. Ushbu sindromning aksariyat qismi birlamchi toifadagi gipoterioz ulushiga kiradi. Agarda qalqonsimon bez funksiyasining pasayishi stimulyatsion ta'sir qilinadigan tireotrop (TTG) yoki rilizing (TTG-RG) gormonining yetishmasligi yoki yo'qligi oqibatida bo'lsa, unda ikkilamchi va uchlamchi turdagi gipofizar gipoterioz yoki gipototalimik genez haqida gap boradi.

Gipoterioz epidemiologiyasi:

- Gipoterioz bilan kasallanish yiliga 1000 odamdan 0,6-3,5 holatida uchraydi.
- Tug'ma gipoterioz chastotasi – har 4-5 ming yangi tug'ilgan chaqaloqlar orasida 1 tasida uchraydi.

- Aholi o'rtasida birlamchi klinik gipoterioz tarqalish miqdori 0,2-1 % ni tashkil etadi; birlamchi subklinik gipoterioz ayollar orasida 7-10 %, erkaklar orasida esa 2-3 % ni tashkil etadi (6:1 nisbatda)

- Kasallik boshlangandan so'ng 1 yil ichida subklinik gipoterioz holatlarining 5-18 % aniqlanadi.

Ko'rsatkichlarga qarab shuni aytishimiz mumkinki, ayollar orasida ushbu kasallikni oldini olish va o'rganishimiz juda muhimdir, chunki ukar erkaklarga qaraganla qalqonsimon bezning gipofunksiyasidan ko'proq aziyat chekadilar.

Gipoteriozning klinik ko'rinishi:

Gipoteriozning belgilari sifatida jismoniy va ruhiy zaiflik, uyquchanlik, loqaydlik, xotira susayishi, depressiv holatlar, mushakdagi og'riq, nafas siqilishi, kardialgiya, qovoqlar shishishi, lab va tilning kattalashishi, ishtaxa yo'qolishi, ko'ngil aynishi, qon ketishlar, teri quruqlashishi, soch to'kilishi, qabziyat, asosiy moddalar almashinuv buzilishi, ayollarda hayz siklining buzilishi, ikkilamchi tuxumdon polikistozi, giperprolaktinematik gipogonadizm, bepustlikni keltirib chiqishini olishimiz mumkin.



Gipoterioz ko'pincha o'rta yoshli va katta yoshli insonlarda uchraganligi sababli, reproduktiv yoshdagi xotin qizlarda gipoterioz holatida bachadonning o'zgarishlarini o'rganish lozim. Agar gipoteriozga shubxa qilinsa, unda faqat qon zardobida TTG konsentratsiyasini aniqlash kifoya. Agar bu ko'rsatkich normal qiymatlarda bo'lsa yoki 10 mME/l dan oshsa, aksariyat hollarda qo'shimcha gormonal tekshiruvlar tavsiya etilmaydi.

Chegara doirasida TTG (4-10 mME/l) konsentratsiyasimiqdori oshib borishida erkin T4 tarkibini aniqlash tavsiya qilinadi. Gipoteriozda bemor qon zardobidagi gormonlar: prolaktinning ortishi, estradiolning pasayishi kuzatiladi, bu esa o'z navbatida hayz siklining buzilishi va bepushtlikka olib keladi.

Ayollarda menstrual sikl fazasiga bog'liq ravishda bachadon o'lchamining ifodali o'zgarishi belgilanadi, bachadon sekretor fazasining boshida eng kichik o'lchamga, bevosita menstruatsiyadan oldin esa eng katta o'lchamga ega bo'lishi aniqlanib, boshqa tomondan esa menstrual sikl fazalariga bog'liq ravishda bachadonda katta o'zgarishlar bo'lmasligi aniqlangan.

Biroq bachadon o'lchamlarining faqat klimatrik davr siklida lyuten fazada ortishini va menopauza sodir bo'lishi bilan bachadon kichrayishi aniqlangan. Bugungi kunda mamlakatimizda onalarga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yaxshilash va takomillashtirish zarur bo'lib ko'plab ayollardagi surunkali holatlarning rivojlanishi hamda shakllanishining oldini olishga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini tubdan yaxshilash tibbiyot sohasini sog'liqni saqlashning jahon talablariga moslashtirish, mamlakatimizning turli mintaqalarida reproduktiv ayollar salomatligini yaxshilash va kasalliklar oldini olishga qaratilgan bo'lib, quyidagilar orqali vazifalarni hal qiluvchi maqsad belgilanmoqda: mamlakatimizda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning samaradorligi, sifatini oshirish va ommabopligini oshirish, shuningdek, kasalliklarni erta tashxislash va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy qilish, patronaj xizmatini yaratish orqali, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarni oldini olish kabi vazifalari belgilangan.

